

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI”

KAFEDRASI

Chuliyev Shuxrat Nasrilloevich

“DEKORATIV RASM CHIZISHDA NAQSH ELEMENTLARI”

mavzusidagi

5110800- “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi» ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Nav.P.K. o‘qituvchisi:
M.Mirboboyeva

Navoiy 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
 I BOB. TASVIRIY SAN`AT HAQIDA UMUMIY	
TUSHUNCHALAR.....	11
1.1. O`zbekistonda tasviriy san`atni o`qitishning, kelib chiqish tarixi.....	11
1.2. Tasviriy san`at tur va janrlari.....	24
 II BOB. DEKORATIV RASM CHIZISHDA NAQSH ELEMENTLARI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR.....	
2.1. O`zbek xalq amaliy san`ati, uning tarixi, turlari, naqqoshlik san`ati	42
2.2. Naqsh va uning turlari jumladan, girix naqsh turi haqida umumiy tushunchalar.....	46
Umumiy xulosalar	55
Atamalar.....	59
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	62

KIRISH.

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufo'zi va mavqei sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo'llarining aniq va to'g'ri ko'rsatib berilganligi, bosh maqsad yo'lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo'lishiga imkon yaratdi.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat - milliy Iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Shunga ko'ra, biz mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda, jahon miqyosidagi inqiroz oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olib, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini, ushbu jarayonlarni pishiq hamda mukammal shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimizni taqozo etadi. Shunday ekan bugungi kun talabi, har tomonlama mukammal ilm egalarini jamiyatimizga yetkazib berishimizni, davrning o'zi talab qilmoqda.

Prezidentimiz yoshlarni har tomonlama qo'llab quvatlashlari, yoshlar uchun dunyo eshiklari ochilganligidan dalolatdir. Bu imkoniyatlardan biz yoshlar, unimli fodalanishimiz ham qarz, ham farzdir. Buning yana bir isboti o'laroq 2014-yil "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilinib, davlat dasturi ishlab chiqilganligidir. Yoshlarimizning kelajagini o'ylab, ularning kamida to'rtta (ingliz, fransuz, rus) tilni mukammal bilishlari, axborot telekamunikatsiyalardan unimli foydalana olishlarini ta'kidlab o'tishlari bejiz emas.

Maktabdagi ta'lim jarayonida o'quvchilar AT yordamida matn bilan ishlashni, tasviriy ob'ektlarni va ma'lumotlar bazasini yaratishni, elektron

jadvallardan foydalanishni o'rganadi. O'quvchilar axborot yig'ishning yangiusullarini, ulardan foydalanishni o'rganishadi, ularning dunyoqarashi kengayadi. Darslarda AT ning ishlatilishi o'qishga bo'lgan motivatsiyasini, o'quvchilarning qiziquvchanligini, mustaqil ishlarning samaradorligini oshiradi. Kompyuter AT bilan birgalikda ta'lim sohasida, o'quvchilarning o'qish va ijodkorligida yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Ilk bor ta'lim AT shaxsning bo'lajak kasbining asosiy instrumenti bo'ladigan vaziyat vujudga keladi. Ta'lim haqiqattan ham hayotimizga butun hayot faoliyati davomida kirib kelaveradi.

Axborot telekommunikatsion tarmoqlarning rivoji esa sayyoramizning turli nuqtalarida saqlanayotgan katta hajmdagi ma'lumotga erishish imkonini yaratadi va shu bilan birga distansion ta'lim tizimlari rivojiga turtki beradi. **XXI** asr yuqori kompyuter texnologiyalari asridir. Bugungi kunning zamonaviy o'quvchisi elektron madaniyat dunyosida yashayapti. Axborot madaniyatini shakllantirishda o'qituvchining vazifasi o'zgarmoqda – u axborot oqimi koordinatori bo'lishi kerak. Taraqqiyot bilan bir xil qadam tashlayotgan o'qituvchilarning ko'pchiligi bugun o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishga texnik va psixologik jihatdan tayyordir.

O'qituvchi dars o'tar ekan u darsning ixtiyoriy bosqichini yangitexnik vositalarni joriy etish orqali jonlantirish mumkin. O'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish o'qituvchiga darslarda o'quv-biluv faoliyatining turli shakllaridan foydalanishga, o'quvchilarning mustaqil faoliyatini faollashtirishga va aniq maqsadga yo'naltirishga imkon beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv axborotidan foydalanishga imkoniyat beruvchi, axborotni qidirib topish, yig'ish va axborot manbasi bilan ishlash, shu jumladan internet tarmog'idagi manbalar, shuningdek axborotni saqlash va yetkazib berish vositasi sifatida qarash mumkin. O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quv materiali sifatini oshirishga va ta'lim samaradorligini kuchaytirishga yordam beradi.

Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash bashariyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz yosh avlodlarga ma'rifat va madaniyatni o'rgatish,

ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini izlaganlar. Aristoteldan keyin, Sharq va G'arbda "Muallimi soniy", ya'ni "Ikkinchi muallim" nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri", "yaxshi xulqlar", "Baxt-saodatga erishish haqida" kabi asarlarida sardor, yetakchiga xos xislatlar haqida yozadi. Farobiy bunday fazilatlar deganda, "Bilimdonlik, donolik, mulohazalilik va vijdonlilik, kamtarlik, jamoa manfaatlarini yuqori qo'yish, haqiqiy ma'naviy komillikka intilish, adolatli bo'lish" kabi xislatlarni tushungan.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimov shaxsning ma'naviy sifatlariga, ularni tarbiyalash ijtimoiy va insonparvarlik ahamiyatiga alohida e'tibor berib: "Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi" deb alohida ta'kidlaydi.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi–

Men o'z malakaviy bitiruv ishimda, tasviriy san'at darslarida bolalarni tabiatni idrok etishga o'rgatish haqida, umumiy tushuncha berishni, tasviriy san'at mashg'ulotlarida, taniqli rassomlarning hayoti va ijodini o'rganishni bir nechta misollar keltirishni o'z oldimga maqsad qilib qo'yganman.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari:

–bu taniqli rassomlarning hayoti va ijodini o'rganishda maktab o'quvchilari uchun oddiy usullardan foydalanib o'tish orqali bilim berish.

– taniqli rassomlarning hayoti va ijodini o'rganishni, innovatsion texnologiya usullaridan o'rinli foydalana olish orqali bilim berish.

Malakaviy bitiruv ishi tuzilishi: kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 63 sahifani tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi:

–Maktab o'quvchilarining tasviriy san'at darslarini yaxshi o'zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqildi;

– Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida "tasviriy san'at" fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi;

– Umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida tasviriy san`at darslarida rassomlar mavzusini o`rgatishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlandi;

Tadqiqot ishimizni yozishda qo`yidagi:

Analitik tahlil, qiyosiy tahlil – pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, tasviriy san`atning zamonaviy metodlaridan unumli foydalana oldik.

TASVIRIY SAN'AT HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR.

1. 1. O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishi kelib chiqish tarixi.

O'zbek halqi o'zining qadimgi tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari va madaniyati bilan faxrlansa arziydi. Chunki, O'zbekiston xududida eramizdan avval ham tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilik turlari nihoyatda rivojlangan bo'lib, ularning namunalari Varaxsha, Afrosiob, Qalchayon, Tuproq qal'a, Bolalik tepa, Ayrtom, Dalvarzin tepa, Fayoz tepa, Qo'yqirilgan qal'a, Ajina tepa, Teshik qal'a va boshqa bir qator joylardan topilgan. Yana shuni ham qayd qilish lozimki, bu asarlar eramizdan avvalgi 4-1- asrlarda yaratilgan bo'lib ularning yoshi 5-6 ming yilga to'g'ri keladi. Bu asarlarning badiiyligi hozirgi zamon rassomlari va haykaltaroshlarining asarlaridan qolishmaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. 11-rasm. Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlarni o'sha davrda to'plangan ilg'or tajriba, tasviriy san'at maktablarisiz yaratish mumkin emas. Ma'lumki, san'at bir necha avlodning ko'p yillar davomida shakllangan an'analari, ustaning shogirga o'tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi. Bu esa so'zsiz umumiy badiiy ta'lim yo'nalishida bo'lmasa ham, kasbiy badiiy ta'lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi. Ma'lum davrlarda O'zbekiston xududidagi san'at taraqqiyotida uzilishlar ro'y berganligining sabablari, Iskanadar Zulqaynar, mo'g'illar, arab, rus istilollariga borib taqaladi. Amir Temur mustaqil davlat tuzgan davrda tasviriy san'atning miniatyura turini gullab-yashnagani ham buning yaqqol dalilidir. Amir Temur davrida miniatyura va kitob grafikasi shunchalik tez rivojlandiki, u na faqat sharq, hattoki yevropa mamalakatlari san'atiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Natijada, Samarqand, Buxoro, Xirotda miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bag'dod, Tabriz, Sherof, Ozarbayjon, Hind, Isfahon, Turk miniatyura maktablari ham shakllandi va rivojlandi.

Mazkur miniatyura maktablari rassomchilikdan kasbiy ta'lim yo'nalishida rivojlangan bo'lsa-da, lekin ulardan umumiy ta'lim tizimidagi tasviriy san'atni o'qitishda bimalol foydalansa bo'ladi. Xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tayyorlangan dasturlarda san'atshunoslik asoslari, rangtasvir va qalamtasvir ishlash, naturaga qarab tasvirlash, borliqni idrok etish bo'limlari mavjud bo'lib,

kasbiy badiiy va umumiy badiiy ta'lim tizimlari o'rtasiga qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi. Tasviriy san'atning nazariy asoslari hisoblangan rang, hajm, perspektiva, kompozitsiya asoslari kabilar, ham kasbiy, ham umumiy ta'lim tizimida o'rganiladi. Faqat tasviriy san'atni o'qitilishida talaba va bolalarning yoshlari, idroki, psixologik xususiyatlari, tasviriy malakalari hisobga olinishi lozim, xolos.

Tasiriy san'at tarixida buyuk naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzodga Hirotlik Miroq naqqosh ustozlik qilgani, unga miniatyura rangtasviri sirlarini o'rgatgani haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, ustoz Miroq naqqoshning Hirot «Nigoristoni» (San'at akademiyasi) bo'lganligi va unda Komoliddin Behzod tarbiya olganligi ham ma'lum.

Professor Orif Usmonov o'zining «Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi» nomli kitobida Behzod Tabrizda yashagan vaqtda nafis tasviriy san'at maktabini yaratganini qayd qiladi. U yerda musavvir o'z atrofiga eng iste'dodli yoshlarni to'plagani, ularga san'atining sir-asrorlarini o'rgatgani va Tabrizda Sulton Muhammad, Mirzo Amir, Oqo Mirak, Muzaffar Ali, Sulton Muhammad Nur, Shom Muhammad Nishopuriy, Yusuf Mullo, Mir Ali, Rizo Abbosiy, Mahmud Muzaxxib, Mavlono Yoriy, Hasan Bag'dodiy, Abdulla Sheroziy, Darvesh Muhammad, Mir Said Ali, Qosim Ali, Xeraviy singari o'nlab iste'dodli musavvirlarni tarbiyalaganligini yozadi. Uning shogirdlari Behzodning tasviriy san'at uslubini davom etirganlari ham rasmiy ma'lumotlardan ayon.

O'zbekistonda hozirgi zamon ta'lim tizimining paydo bo'lishi XX asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Rossiyada oktyabr inqilobi so'zsiz uning mustamlakasi hisbolangan Turkistonga ham katta ta'sir ko'rsatadi. yangi tuzum o'zini ko'rsatish maqsadida e'tibordan chetda qolgan chorizimning mustamlaka o'lkalariga e'tibor qaratdi. Shu maqsadda u bir guruh fan va madaniyat vakillarini Turkistonga yubordi. Shulardan bir guruhi Sankt-Peterburg va Moskvalik rassomlar edilar. Ularning bir qismi ijodiy ish bilan shug'ullansalar, ayrimlari yoshlar badiiy ta'limiga o'z e'tiborlarini qaratdilar. Bu rassomlar Turkistonning yirik shaharlarida badiiy studiyalar tashkil etdilar, o'z asarlarining ko'rgazmalarini o'tkazdilar.

1918 yilda Toshkentda badiiy kommuna ochiladi, bir yildan keyin Samarqandda Turkiston o'lkasi badiiy xalq maktabi ishga tushadi. 1920 yilda Andijonda rangtasvir maktabi, yangi Buxoroda san'at to'garagi tashkil etildi, musulmonlar uchun tasviriy san'at kurslari ochildi. Bir yildan so'ng respublikada badiiy maktab va studiyalar soni 29 taga yetdi va unda shug'ullanuvchilar soni 500 kishidan oshib ketdi. 1921 yil kuzida ochilgan badiiy politexnikumda 170 o'quvchidan 150 tasi o'zbeklar edi.

1924 yilda Toshkent tasviriy san'at muzeyi qoshida badiiy studiya ochildi. Unda M. Kupriyanov (Mashhur Kukrinikslar guruhidan), S. Chuykov, mahalliy yosh rassomlardan O'. Tansiqboevlar yoshlar bilan mashg'ulotlar olib bordilar. 1927 yilga kelib Toshkent va 1929 yilda O'zbekiston poytaxti hisoblangan Samarqandda badiiy bilim yurti tashkil etildi. Bu bilim yurtlariga ko'proq mahalliy yoshlar qabul qilindi. Bu bilim yurtlarining asosiy maqsadi rassomlar tayyorlash bo'lsa-da umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlash borasida ham ma'lum rol o'ynadi.

Shu bilan birga ta'lim tizimida estetik va badiiy ta'lim masalalariga ham e'tibor qaratila boshlandi.

1918 yilda umumiy ta'lim maktablari uchun ishlab chiqilgan «Osnovno'e prinsipov yediniy trudovoy shkolo'» nomli asosiy hujjatda «Estetik ta'lim deganda qandaydir sodda bolalar san'atini o'qitilishini tushunmaslik lozim, u xissiyot organlari va ijodiy qobiliyatlarni muntazam rivojlantirib boradi va u go'zallikdan zavqlanish va ularni yaratuvchanlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu elementdan mahrum qilingan mehnat va ilmiy ta'lim jonsiz gavdaga o'xshab qoladi. Chunki hayotdagi zavq va ijod quvonchi mehnatning ham, ilmning ham yakuniy maqsadidir» deb yozilgan edi. Bu hujjat O'zbekiston maktablari uchun ham asos qilib olindi.

Bolalar ijodi bilan shug'ullanayotgan ko'pchilik rassomlar bolalar ijodini ideallashtirdilar va yevropada keng tus olgan «Erkin ijod» deb ataluvchi tushukunlikka yuz tutgan nazariyadan kelib chiqqan qarashlarni yoqladilar. Bu yo'nalishdagi mutaxassislar pedagog faqat bola ijodini erkin rivojlantirishi va

malakasini oshirishga yordam berishi lozim deb qaradilar. Mana shunday mutaxassislardan biri Peterburglik an'atshunos A. V. Bakushinskiy edi. U o'zining «Xudojestvennoe tvorchestvo i vospitanie» nomli kitobida badiiy tafakkur va badiiy ijodga to'liq erkinlik berish kerak, bolalarning badiiy didini, badiiy asarini «tuzatish», «qotillik hisoblanadi» deb yozdi. Bu fikr o'sha davr pedagogika nazariyasiga tamomila zid edi. (6. 54).

Ma'lumki, jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan kishilarning psixologiyasi ham o'zgarib boradi. Kishilar, xususan, bolalar esa ularni o'rab olgan muhitda asosan ta'lim bilan tarbiyaning uyushgan holdagi ta'sirida rivojlanadi. Asrlar davomida yig'ilgan o'zlarining tajriba bilim va malakalarini yoshlarga o'tkazadilar. Natijada yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish, bilim va ijodiy qobiliyatlarini o'stirish ko'p jihatdan tarbiyaning yo'nalishga bog'liq bo'ladi.

O'qituvchi yoki tarbiyachining ta'sir kuchini tan olmagan, bolalarni o'qituvchidan ajratib qo'ygan «Erkin ijod» nazariyasi yoshlarning badiiy tarbiyasiga ta'sir ko'rsatdi. Bu nazariya O'zbekistonda nashr etilgan dasturlarda va umumiy ta'lim va tarbiyaviy ishlarda o'z aksini topdi.

Xususan, O'zbekiston maktablari uchun 1935 yilda nashr etilgan «Rasm va loy ishi» nomli dasturda «Erkin rasm chizish» bo'limi mavjud bo'lib, bu bo'limga I sinfda 8 soat, II sinfda 6 soat, III sinfda 4 soat, IV sinfda 2 soat vaqt ajratilgan edi.

Natijada maktab dasturlari qayta ko'rib chiqildi. Rasm darslarining asosini naturaga qarab rasm ishlash, mavzu asosida rasm ishlash, dekorativ rasm ishlash, san'at haqida suhbat o'tkazish mashg'ulotlari tashkil etdi. Bu dasturlarda o'lkashunoslik materiallari ko'p bo'lmasada, har qalay o'z aksini topdi, eng muhimi bu dasturda darsdagi o'qituvchining yetakchilik roli katta ekanligi belgilab qo'yildi.

Mazkur nazariya yuzasidan Rossiyada ham, yevropada ham katta tortishuv va tanqidiy fikrlar bildirildi. U badiiy tarbiya sohasida ham salbiy, ham ijobiy rol o'ynadi. Uning salbiy tomoni bolalar ijodiga rahbarlikni inkor etilishi va pedagogika nazariyasiga zid yo'l tutilganligi edi.

Ijobiy tomoni esa ko`proq bolalar tasviriy ijodiga etiborni kuchaytirish, bolalar shaxsiga hurmat va muhabbat bilan munosabatda bo`lish, pedagogik hamkorlikka yo`naltirilgan mustaqillik va ijodni ro`yobga chiqarish bilan belgilanadi.

1924 yilga kelib maktab o`quv rejalarida rasm darslari o`z o`rnini topmagan bo`lsa-da ayrim rassomlar bolalar tasviriy ijodini rivojlantirishga harakat qildilar. Ana shunday iqtidorli yosh grafik rassomlardan biri Iskandar Ikromov edi. U 1925 yilda «Maorif va o`qituvchi», keyin «Alanga» jurnallarida rasm chizishga doir maqolalar elon qildi. 1932 yilga kelib uning «Rasm chizishni o`rganish qo`llanmasi», 1933 yilda esa «Kitob va jurnallar qanday nashr etiladi» albomi nashr etildi. 1935 yilda rassomning «harf yozishni o`rgan» kitobi ham chop etildi. Bu maqola va kitoblar yagona mehnat va politexnika maktablari talablari asosida yaratilgan «Rasm» predmeti dasturlariga mos edi. Mazkur ishlar faqat umumiy ta`lim maktablari uchungina emas, balki tasviriy sa`nat studiyalari, klublar, havaskorlik to`garaklari, grafikani mustaqil o`rganuchilar uchun ham ahamiyatli bo`ldi

1920 yilgi o`quv rejalarida san`atga doir o`quv predmetlariga tegishli o`rin ajratilmagan bo`lsa-da, 1929 yilga kelib bu kamchilik bartaraf etila boshlandi. Maktablarda maxsus rasm o`quv predmetlari o`qitila boshlandi. Lekin O`zbekiston maktablari Rossiya maktablari uchun yaratilgan dasturlar asosida ishlay boshladi. Bu dasturlar ma`lum miqdorda O`zbekiston sharoitiga moslab lokalizatsiyalashgan edi. Shu munosabat bilan O`zbekiston xalq morifi kommissarligi tegishli joylarga yuborilgan xatida shunday deyilgan edi: «Majmuaning maqsadi unga tegishli material mazmuni, majmua bilan ishlash metodlari lokalizatsiya qilinadi. O`qituvchi oldindan o`lkashunoslik materiallarini to`plab olgan holda, o`z tumani hayotiga oid eng xarakterli jihatlarni dasturga kiritadi».

Shu munosabat bilan boshlang`ich sinf «Rasm va loy ishi» dasturiga o`lka materiallari kirita boshlandi. Ular tevarak-atrof tabiatiga doir narsalar, O`zbekiston halq amaliy san`atiga doir materiallar edi.

Ta'sviriy san'at predmeti metodikasi shakllanishida 1934 yilda Toshkentda, Keyinchalik Respublikamizning har bir viloyat markazlarida tashkil etilgan «Markaziy badiiy tarbiya uylari» katta rol o'ynadi. Bu tarbiya uylari o'quvchilarni badiiy jihatdan tarbiyalashga oid dasturiy va metodik materiallarni ishlab chiqdi.

Badiiy tarbiya uylarida boshqa sho'ba bilan bir qatorda tasviriy san'at sho'basini ham bo'lib, unda uch yillik tasviriy san'at studiyasi ham tashkil etilgan edi.

Bu badiiy tarbiya uyidagi Ikkinchi sho'ba bolalar rasmlarining ko'rigini tashkil etish bilan shug'ullangan. Uchinchi sho'ba esa nihoyatda serqirrali bo'lib, uning asosiy vazifasi bolalar bilan rasm darslarida ish olib boruvchilarga metodik yordam ko'rsatish hisoblanardi. Shuningdek, bu sho'ba qo'yidagi ishlarni ham olib borgan:

- tasviriy san'at studiyalari uchun mashg'ulotlar dasturini ishlab chiqish;
- maktab tasviriy san'at to'garaklari uchun mashg'ulot mavzularini ishlab chiqish;
- 1-6 sinflarda rasm mashg'ulotlarining mazmuni va mavzularini ishlab chiqish;
- 1-6 sinflarda rasm darslarining ahvolini o'rganish va o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish;
- shahar maktablarining rasm o'qituvchilari uchun seminar tashkil etish;
- Respublika viloyatlaridan kelgan o'qituvchilar va to'garak rahbarlari uchun seminarlar tashkil etish va ularga tegishli yordam ko'rsatish.

1936 yildan boshlab Respublika miqyosida yuzaga kelgan pioner uyi va saroylari ta'lim-tarbiya, ommaviy-badiiy, texnikaviy, tabiatshunoslik kabi bir qator ish shakllarini o'zida mujassamlashtirgan muassasa ekanligini ko'rsatdi. Natijada, badiiy tarbiya uylarining vazifalari ana shu pioner uylari va saroylariga olib berildi. Pioner uyi va saroylarining soni yildan-yilga oshib borib, sifat jihatdan yangi mazmun kashf eta boshladi.

Respublikamiz uchun tayyorlangan va nashr etilgan dasturlar mazmuni va vazifasi jihatidan Rossiya maktablari uchun tayyorlangan dasturdan deyarli farq

qilmagan, lekin uning hamma bo`limlarida mahalliy sharoit va materiallar ma'lum miqdorda hisobga olingan edi. Xususan, narsaga qarab rasm chizish darslarida Respublikamizga xos bo`lgan predmetlar va tabiat mahsulotlari, dekorativ ishlar bo`limida o`zbek amaliy san'at namunalarini chizdirish tavsiya etilgan edi.

1939 yillarda maktablarda rasm darslarining asosiy vazifasi o`quvchilarda tasviriy malakalarni o`stirish, ko`proq rasm chizishga o`rgatishdan iborat bo`lishi lozim deb topildi. Shuning uchun ham rasm darslarida tarbiyaviy tomonlarga yetarlicha e'tibor berilmadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida va qisman undan keyingi yillarda ham rasm darslarining vazifalari o`zgardi, uning mazmunida ta'limdan ko`ra tarbiyaviy jihatlar kuchaytirilgan bo`lib, unda asosiy e'tibor vatanparvarlik va bayналminal tarbiyaga qaratildi. Shu maqsadda rasm darslari vatanparvarlik va bayналminal mazmundagi tasviriy san'at asarlari bilan boyitildi. Ular ko`proq rassomlarning nemis-fashist bosqinchilarining kirdikorlarini ochib tashlashga qaratilgan asarlardan iborat edi.

Ikkinchi jahon urushidan so`ng «Rasm» predmetining o`qitilishiga e'tibor kuchaytirildi va u maktab o`quv rejalarida tegishli o`rinni egalladi. 1947-48 o`quv yili uchun tuzilgan o`quv rejada «Rasm» uchun haftasiga I-sinfda 1 soat, II- sinfda 1 soat, III-IV-sinflarda 0,5 soat, V-sinfda 1 soat vaqt ajratilgan bo`lib, natijada umumiy haftalik soatlar 4 soatni tashkil etdi.

1950-60 yillar davomida tayyorlangan va nashr etilgan dasturlarda «Rasm» o`quv predmetining vazifasi urushga qadar tuzilgan dasturlardan farq qildi.

1953 yilda nashr etilgan dastur «Rasm solish» deb nomlanib u o`quvchilarni tarbiyalashda katta rol o`ynashi ta'kidlangan bo`lsa, 1956 yilda nashr etilgan «Rasm» dasturida esa bu predmetning vazifasi o`quvchilarni estetik jixatdan tarbiyalash vazifasiga xizmat qiladigan va o`quvchilarni har tomonlama kamol toptirishga yordam beradigan o`quv predmetlaridan biridir deb ko`rsatildi. (27. 147).

1958-59 o`quv yiliga kelib, o`quv rejasida rasm chizishga ajratilgan soatlar oshdi va u 1-6 sinflarda haftasiga 1 soatdan o`qitila boshlandi.

Umuman olganda, 50-yillarda Respublika hukumati tomonidan maktablarda rasm predmetining o`qitilishiga bo`lgan e`tibor kuchaydi. Bu avvalo maktablar uchun o`qituvchi kadrlar tayyorlashda o`z aksini topdi. Ma`lumki, maktabda badiiy ta`limni rivojlantirish ko`p jihatdan pedagogik kadrlar tayyorlashga bog`liq edi. 1950 yillarda bu masala bilan Samarqand va Toshkent badiiy bilim yurtlarini birlashtirish natijasida tashkil topgan P. P. Benkov nomidagi badiiy bilim yurti shug`ullana boshladi. Bu badiiy bilim yurti xalq xo`jaligini, xususan umumta`lim maktablarini yuqori malakali kadrlarga bo`lgan ehtiyojini qondira olmasa-da, maktablarda rasm o`quv predmetlarning o`qitilishini sifat jihatidan yaxshilashga ma`lum miqdorda ta`sir ko`rsatdi. Bu ta`sir maktablar bilan bir qatorda, maktabdan tashqari olib boriladigan seminar, konferensiya, yig`ilishlarda ham o`z ifodasini topdi. Shuningdek, badiiy bilim yurtini bitirib chiquvchilar maktablarda tashkil etilgan ko`rgazmalarda ham ishtirok etdilar.

Tasviriy san`atning o`qitilishini takomillashtirishda 1955 yilda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutida tashkil etilgan badiiy-grafika fakulteti katta rol o`ynadi. Mazkur fakultetda kunduzgi, kechki va sirtqi bo`limlar orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlana boshlandi. Shuni ham qayd qilish lozimki, mazkur fakultetda dastlabki yillarda kadrlarni kasbiy tayyorgarligi ancha yuqori bo`lib, o`sha yillar bu fakultetda mashg`ulotlarni Respublikamizning yirik rassomlari olib bordilar. Masalan, O`zbekiston halq rassomi A. Abdullayev, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan rassomlar Yu. Yelizarov, M. Saidov, A. Yurovskiy, T. Oganegov, shuningdek Leningrad badiiy akademiyasini va Moskva badiiy institutini yangigina bitirib kelgan yosh lekin talantli rassomlar R. Choriev, N. Kovinina va boshqalar shular jumlasidandir.

1964-70 yillarda kadrlar tayyorlash boshqa yo`nalishlarda amalga oshirildi. Bu davrda boshlang`ich sinf metodikasi fakultetlarida «Boshlang`ich sinf va tasviriy san`at o`qituvchisi» mutaxassisligi bo`yicha kadrlar tayyorlandi. Bunday yo`nalishlardagi mutaxassislar Toshkent, Urganch, Qarshi, Namangan pedagogika institutlarida tayyorlandi. Keyinchalik bu yo`nalish o`zini oqlamagach, yana Toshkent va Buxoro pedagogika institutlarida badiiy-grafika fakultetlari ochildi.

1970 yilda tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha Toshkent va Buxoro pedagogika institutlari bilan bir qatorda Andijon, Kattaqo'rg'on, Samarqand, Angor, Xiva, Xo'jayli, Shahrixon pedagogika bilim yurtlarida ham kadrlar tayyorlana boshlandi

1980 yil boshlarida tasviriy san'at o'qituvchisi ixtisosligi bo'yicha yiliga tayyorlangan kadrlar soni 800 kishidan ortdi. Bu faqat O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarining tasviriy san'at o'qituvchilariga bo'lgan ehtiyojlarini yaqin yillarda qondirish mumkinligini bildirar edi.

Bolalarga rasm chizishni o'rgatish bo'yicha ilmiy, metodik ishlar ko'lamini kengaytirish maqsadida 1960 yilda O'zbekiston pedagogiki fanlari ilmiy tadqiqot instituti qoshida musiqiy – badiiy ta'lim bo'limi tashkil etildi. Bu bo'lim O'zbekiston maktablarida tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga doir bir qator dolzarb masalalarni tadqiqot qilishga kirishdi. Ular «Tasviriy san'atdan 1-3 sinf o'quvchilarining bilim, malaka va ko'nikmalari darajasini aniqlash» «Narsaga qarab rasm chizish mashg'ulotlari samaradorligini oshirish yo'llari», «Boshlang'ich sinflarda mavzu asosida rasm chizish jarayonida estetik tarbiya» «O'zbekiston maktablarida tasviriy san'atni o'qitishning mazmuni va metodikasini takomillashtirish», «O'zbekiston dekorativ-amaliy san'ati vositasida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni estetik tarbiyalash», «Estetika asoslari va san'atshunoslik» dan fakultativ kurs, «O'zbekiston umumta'lim maktablarida naqqoshlik to'garagi mashg'ulotlarining mazmuni va metodikasi», «Maktabda tasviriy san'atni boshqa o'quv predmetlari bilan o'zaro bog'liqligi» va boshqa tadqiqotlar shular jumlasidandir. O'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari asosida maktablar uchun dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar, ilmiy, metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va ular Respublika maktablariga tadbiq qilindi.

Yana bu bo'lim o'z faoliyati davomida tasviriy san'atni o'qitishga doir ilmiy xodim, tadqiqotchi-aspirantlar hamkorligida quyidagi ishlarni tayyorladi va nashr etdi: «Tasviriy san'at» (1-3 sinflar uchun dastur. -Toshkent: O'qituvchi, 1965-1981); «Tasviriy san'at» (4-6 sinflar uchun dastur. –Toshkent: O'qituvchi, 1967-1981); «Naqqoshlik» (Maktab va pioner uylari va saroylari uchun dastur. –

Toshkent: O`qituvchi, 1976); «Tasviriy san`at va loy ishi» (Maktab tayyorlov guruxlari dastur. – Toshkent, 1980.) kabilar shular jumlasidandir.

1965 yildan boshlab Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining estetik tarbiya bo`limida tasviriy san`at o`qitish metodikasi bo`yicha olib borilayotgan ishlarni tartibga solish maqsadida darslik yaratishga kirishildi. 1969 yilda 1- sinf uchun «Tasviriy san`at» (A. Jilsova, R. Hasanov); 1974 yilda II sinf uchun «Tasviriy san`at» (R. Hasanov, A. Jilsova); 1976 yilda III sinf uchun « Tasviriy san`at» (R. Hasanov, A. Jilsova); 1977 yilda IV sinf uchun « Tasviriy san`at» (R. Hasanov, B. Oripov va boshqalar) nashr etildi. 1-3 sinflar uchun nashr etilgan darsliklar keyingi yillarda bir necha bor qayta chop etildi.

1970 yildan boshlab maktablarda tasviriy san`atni o`qitish muammosi yuzasidan estetik tarbiya sho``basi qoshida Toshkent va Buxoro pedagogika institutlarining o`qituvchilari, Ushinskiy nomidagi o`qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markaziy instituti va viloyat o`qituvchilari malakasini oshirish institutining metodistlari, O`zbekiston maorif vazirligining metodistlari, aspirant-tadqiqotchi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar. Mazkur masalalar bilan bir qatorda maktab tasviriy san`at o`qituvchilari ham shug`ullandilar.

O`zbekiston umumta`lim maktablarida tasviriy san`atni o`qitishni yaxshilashda olib boriladigan tadqiqotlarning natijasi sifatida quyidagi nashr qilingan metodik qo`llanma va ko`rgazmali qurollar alohida ahamiyat kasb etdi:»Narsaning o`ziga qarab rasm chizish» (R. Hasanov), – Toshkent: O`qituvchi, 1969; «Boshlang`ich sinflarda naqsh chizish metodikasi» (R. Hasanov), – Toshkent: O`qituvchi, 1972; «Tasviriy san`atdan tablisalar» (R. Hasanov),- Toshkent: O`qituvchi, 1975; « 1-3 sinflarda tasviriy san`at darslari» (R. Hasanov),- Toshkent: O`qituvchi, 1977; « Rasm Chizish va uni o`qitish metodikasi» (Z. Egamberdiev, R. Hasanov va boshqalar), - Toshkent: O`qituvchi, 1977; « Tema asosida rasm Chizish jarayonida estetik tarbiya» (R. Hasanov),-Toshkent: O`qituvchi, 1980; «Boshlan- g`iCh sinflarda tasviriy san`at darslari» (R. Hasanov), - Toshkent: O`qituvchi, 1983; «Yosh avlodni san`at vositasida estetik tarbiyalash» (R.

Hasanov),-Toshkent: O`zbekiston, 1982; «Maktab Chizmachilik, tasviriy san`at kabinetlarini tashkil etish va o`quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar» (B. Oripov),-Toshkent: O`qituvchi, 1974; «Tasviriy san`at darslari samaradorligini oshirish omillari» (B. Oripov), - Toshkent: O`qituvchi, 1978; «Naqqoshlik» (Q. Qosmov),-Toshkent: O`qituvchi, 1982. yana shu narsani ham quvonch bilan ta`kidlab o`tish lozimki, Pedagogika fanlari institutining estetik tarbiya bo`limi 1970 yildan boshlab muntazam ravishda maqolalar to`plamini nashr eta boshladi. Bu to`plam bo`lim ilmiy xodimlari, tadqiqotchi-aspirantlarning ishlaridan tashkil topgan bo`lib, ularda tasviriy san`atni o`qitishga katta o`rin ajratilgan edi.

Tasviriy san`atning o`qitilishini yaxshilashda A. Shohamidov, M. Nabievlarning 1964 yilda nashr etilgan «I-IV sinflarda rasm darslari» metodik qo`llanmasi, O. Apuxtinning 1965 yilda nashr etilgan «San`at haqida suhbatlar»nomli qo`llanmalari o`qituvchilar tomonidan iliq kutib olindi.

1970-yilga kelib tasviriy san`at o`qituvchilarining ish tajribalari ko`zga ko`rina boshladi va ularning faoliyatlari ancha faollashdi. Natijada mamlakatimizda bir qator mahoratli o`qituvchilar A. Shohamidov (Toshkent shahri, 22 maktab), E. Risqullayev (Toshkent shahri, 81-maktab), Belonoshkin (Toshkent shahri, 188-maktab), O. Dadaxonov (Namangan shahri, 26-maktab), A. Abdullayev (Shahrixon shaxri, 1-maktab), I. Boboniyozov (Urganch shahri, 35 maktab-internat), G. Turobboev (Namangan shaxri, 29-maktab), K. Mansurov (Toshkent viloyati, 27-maktab), P. Mustafoev (SHahrisabz shahri, 6-maktab), A. Mannopjonov (Namangan viloyati, 12-maktab) va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Shuningdek, Respublika pedagogik o`qishlariga qatnashayotgan muallimlar soni ham ortadi. Masalan, 1963 yilgi Respublika pedagogika o`qishlarida bironta ham tasviriy san`at o`qituvchisi qatnashmagan bo`lsa, 1970 yilga alohida estetik tarbiya sho``basi tashkil etildi. 1972 yilda esa «Estetik tarbiya» sho``basida «Tasviriy san`at» kichik sho``basi ish olib bordi va unda 17 ma`ruza tingladi. Keyingi pedagogik o`qishlarda ma`ruzachilarning soni yana ham ko`payib bordi. Ta`lim-tarbiya jarayonida yaxshi natijalarga erishib, pedagogik o`qishlarda

muvaffaqiyatli qatnashganliklari uchun bir qator taniqli o`qituvchilar vazirlikning mukofotlariga ham sazovor bo`ldilar.

Tasviriy san'at o`qituvchilarining mahoratini oshirish va ilg`or pedagogik tajribalarni tashviqot qilishda Respublika miqyosida o`tkazilayotgan seminar va konferensiyalar katta rol o`ynadi.

1969 yilda estetik tarbiyaga bag`ishlangan Respublika seminar kengashi 1970 yilga kelib an'anaviy Respublika konferensiyaga aylandi va u har yili galma-galdan Respublikamizning viloyatlarida o`tkazib turildi. Samarqand, Jizzax, Xorazm, Buxoro, Namangan, Andijon konferensiyalarida o`qituvchi, tarbiyachi, xalq maorifining rahbar-xodimlari bilan bir qatorda ilmiy xodimlar, metodistlar ham ma'ruzalar bilan ishtirok etdilar. Ma'ruzalarda dolzarb masalalarni ko`tarib chiqdilar. Bunday ilmiy-amaliy konferensiyalar faqat Respublika miqyosida emas, balki viloyat, shahar, tuman miqyosida ham o`tkazib turildi.

O`zbekiston vazirlar mahkamasining 1966 yil 31 dekabr qaroriga muvofiq, O`zbekiston Vazirlar kengashining 1967 yil 22 martidagi farmoyishi asosida O`zbekiston maktablaridagi ta'lim mazmunini aniqlash bo'yicha komissiyalar tuzildi. Boshqa fanlar qatori maktablarda tasviriy san'at bo'yicha ham komissiya ishladi. Bu komissiyaga maktab o`qituvchilari, xalq maorifining xodimlari, metodist, ilmiy xodim, rassom, san'atshunoslar jalb etildi.

«Tasviriy» san'at deb nomlangan yangi dastur loyihasi shu vaqtgacha amalda qo`llanib kelingan «Rasm» predmeti asosida O`zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida yaratildi.

Uni tuzishga yuqorida qayd etilgan qaror asos bo`ldi:

a) maktabda ta'limning mazmuni va strategiyasini fan, texnika va madaniyat taraqqiyotining hozirgi darajasiga mos keltirish;

b) maktabda ta'lim va tarbiyani hayot bilan, mehnat bilan bog`lanishini yanada mustahkamlash;

v) bir-biriga bog`liq bo`lgan o`quv fanlari o`rtasida aloqa o`rnatish. Bu orqali o`qitish samaradorligini oshirish, zarur bilimlarni egallashda bolalarning bilish va fikrlash qobiliyatlarini o`stirishga yordam berish;

g) o`quvchilarning o`quv mashg`ulotlari va mustaqil ishlarining kengaytirilishi, ularni ortiqcha ish bilan band qilmaslik va hokazolar.

Shuningdek, dasturni tuzishda quyidagi tomonlar ham hisobga olindi:

a) so`nggi yillarda yaratilgan O`zbekiston tasviriy san`ati asarlaridan keng foydalanish;

b) boshlang`ich ta`limni 1-3-sinflar bilan chegaralanishi munosabati bilan boshlang`ich va 4-6-sinflarda tasviriy san`at mashg`ulotlari mazmuniga aniqlik kiritish;

v) zamon talablari asosida tasviriy san`at predmetining vazifalarini aniqlash;

g) naturadan rasm chizish darslari uchun o`zbek halqining hayotida keng qo`llaniladigan narsalar va iste`mol buyumlaridan keng foydalanish;

d) dekorativ rasm darslarida o`zbek halq amaliy san`ati namunalaridan Chizish uchun tavsiya etish.

Mazkur dasturda shartli ravishda hajmsiz deb qisoblangan narsalarning rasmini (papka, daftar, portfel, barg va boshqalar) ishlash 1-3- sinflardan 4- sinfga ko`chirildi.

1967-68 o`quv yilidan boshlab yangi dastur loyihasi Respublikamizning Namangan, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrining qator maktablarida sinab ko`rildi.

O`zbekiston Maorif vazirligi va O`zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining tekshiruvlari natijasida yangi ta`lim mazmuni ko`pchilik o`quvchilar tomonidan yaxshi o`zlashtirilmayotganligini ko`rsatdi. Shuningdek, dasturdagi badiiy qurish-yasashga doir materiallar esa o`quvchilar kuchiga mos emasligi ham ma`lum bo`ldi. Shuning uchun bu bo`lim keyingi yillarda dasturdan chiqarib tashlandi.

Yangi dastur o`quvchilarning estetik tarbiyasiga aloqador bo`lgan tashkilotlar muassaslar, uyushmalarning faoliyatini qo`yidagi yo`nalishlarda faollashtirishni nazarda tutgan edi:

a) har yili mantazam ravishda o`quvchilar rasmlari respublika ko`rgazmalarini o`tkazish;

b) tasviriy san'at bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish natijasida maktab to'garaklari, san'at maktablari, pedagogika bilim yurtlari va institutlari uchun bir qator dastur, darslik, qo'llanma va to'plamlar tayyorlash va nashr etish;

v) umumiy ta'lim maktablarida yirik rassomlar asarlaridan ko'chma ko'rgazmalar tashkil etish;

g) O'zbekiston rassomlar uyushmasi qoshida o'quvchilar estetik tarbiyasi bo'yicha komissiya tashkil etish.

Maktablarda so'nggi yillarda tasviriy san'atning o'qitilishini yaxshilash bo'yicha bir qator yirik tadbirlar o'tkazilgan bo'lsa-da bu sohada keskin o'zgarishlar ro'y bermadi. Chunki, ko'pchilik tasviriy san'at o'qituvchilari maxsus ma'lumotga ega emas edilar. Benkov nomidagi badiiy bilim yurtini birtiruvchilarining ko'pchiligi maktablarda tasviriy san'atdan haftalik dars soatlari kam bo'lganligi sababli u yerda ko'p qo'nim topishmas edi. Oliy maxsus ma'lumotli o'qituvchilar tayyorlaydigan Nizomiy nomli TashDPIning badiiy-grafika fakultetining bitirib chiqayotgan yoshlarning o'qituvchilik faoliyatlari ham ana shunday tugardi.

Tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilarining yetishmasligi unga jiddiy e'tibor berishlikni talab etdi. Natijada O'zbekiston maorif vazirligi kollegiyasining 1974 yil 26 avgustda «Pedagogika o'quv yurtlarida musiqa va ashula, tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilarini tayyorlash va bu predmetlarning Respublika umumta'lim maktablari va pedagogika o'quv yurtlarida o'qitilishini yanada yaxshilash haqida» gi qaror qabul qilindi.

O'zbekiston maorif vazirligining mazkur qarori Qoraqalpog'iston Respublikasi maorif vazirligi, Respublika viloyatlari, Toshkent shahar halq maorifi bo'limlariga hamma umumta'lim maktablari, o'quv yurtlarini maxsus ma'lumotli mutaxassislar bilan ta'minlash choralarini ko'rishni, vazirlikning reja-moliya boshqarmasiga, oliy va o'rta maxsus pedagogika o'quv yurtlarining musiqa, badiiy-grafika fakultetlarida musiqa, tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchi-

larini kechki va sirtqi bo`limlarida ham tayyorlashni maqsadga muvofiqligini ko`rib chiqishni yukladi.

Tasviriy san`atning o`qitilishini yaxshilash borasida qabul qilingan O`zbekiston maorif vazirligi kollegiyasining O`zbekiston rassomlar uyushmasi boshqarmasi bilan hamkorlikdagi 1979 yil 27 iyunda « Maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyalanuvchilari, o`qituvchilar va pedagogika o`quv yurtlari-ning o`quvchi-yoshlari badiiy tarbiyasini yanada yaxshilash choralari haqida» qabul qilgan qarori salmoqli o`ringa ega bo`ldi.

Qarorda o`tgan davrda tasviriy san`at bo`yicha halq maorifi va rassomlar uyushmasi tizimida qo`lga kiritilgan yutuqlar tilga olindi va kamchiliklar, ularning bartaraf etish yo`llari ko`rsatildi. Xususan, unda Qoraqalpog`iston Respublika viloyatlari, Toshkent shahar halq maorifi bo`limlariga, pedagogika o`quv yurtlari-ning rahbarlariga tezkorlik bilan maktabgacha va maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, maktablar, pedagogika o`quv yurtlarida badiiy tarbiyani yaxshilashning aniq tadbirlarini ishlab chiqish topshirilgan edi.

1980 yilning aprelida Toshkentda «O`quvchi yoshlar badiiy tarbiyasininig ahvoli va uni yaxshilash choralari haqida» deb nomlangan seminar, kengash o`tkazilishi mazkur qarorni bajarishdagi dastlabki qadam bo`ldi. Mazkur tadbirni Maorif vazirligining tarbiyaviy ishlar bo`limi, rassomlar uyushmasi bilan hamkorlikda o`tkazdi. Kengashda 400 dan ortiq o`qituvchi, tarbiyachi, halq maorif xodimlari, ilmiy xodimlar ishtirok etdi, yuzdan ortiq ma`ruzalar tinglandi va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1981 yil martida sobiq ittifoq rassomlar uyushmasining tashabbus asosida Toshkentda navbatdan tashqari «O`quvchi yoshlarni badiiy-estetik tarbiyalashning vazifalari» mavzusida Butunittifoq ilmiy-amaliy konferensiya bo`lib o`tdi.

1981 yil O`zbekiston maorif vazirligi T. N. Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot inistitutiga tasviriy san`atdan yangi dastur loyihasini ishlab chiqishni topshirdi.

O'zbekiston umumta'lim maktablarining boshlang'ich (1-3) sinflari va IV-VI sinflar uchun «Tasviriy san'at» yangi dasturlari tayyorlandi va unda quydagilarga rioya qilindi:

1. O'zbekiston tasviriy va amaliy san'atlari, adabiyot va musiqa asarlaridan o'rinli foydalanish.

2. O'zbekiston tabiati, tabiat mahsulotlari, turmushda qo'llaniladigan narsalardan keng foydalanish.

3. O'zbekiston ko'p millatli Respublika ekanligini hisobga olgan holda baynalminal tarbiyaga ko'proq e'tibor berish.

4. Materiallar tanlashda O'zbekiston maktablari o'qituvchilarining bilim darajalari past ekanligini hisobga olish.

5. O'zbekiston maktablari o'qituvchilari badiiy qiziqishlarini hisobga olish .

Yangi dasturga o'tish bo'yicha O'zbekiston maorif vazirligida keng ko'lamdagi ish rejasi ishlab chiqildi. Unda yangi dastur bo'yicha o'qituvchilarni qayta tayyorlash, o'quv metodik majmualar ishlab chiqish va nashr etishga alohida e'tibor berilgan edi. Xususan, tasviriy san'atdan I-III- va IV-VI sinflar uchun dasturlar tayyorlandi va nashr etildi.

Keyinchalik yangi dasturlar asosida R. Hasanovning «Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at darslari», «Birinchi sinfda tasviriy san'at darslari», «Ikkinchi sinfda tasviriy san'atni o'qitish», «Uchinchi sinfda tasviriy san'at darslari», «Maktabda tasviriy san'atni o'qitishni takomillashtirish yo'llari» nomli metodik qo'llanmalari chop etildi. O'zbekiston maktablarida tasviriy san'atni o'qitishga doir Respublikada birinchi bor «O'zbek maktablarida badiiy ta'lim va tarbiyaning metodik asoslari» nomli monografiya R. Hasanov muallifligida tayyorlandi va «Fan» nashriyoti tomonidan nashr etildi. Bu davrlarda R. Hasanovning «Tasviriy san'at», «O'zbekiston tasviriy san'ati tarixi» nomli fakultativ mashg'ulotlar dasturlari birinchi bor ishlab chiqildi va maktablarga yetkazildi.

Bu davrga xos bo'lgan jihatlardan yana biri tasviriy san'at tal'imi mazmunini takomillashtirish edi. Shu maqsadda 1-4-sinflar uchun «Tasviriy san'at

va badiiy mehnat» dasturlari yaratildi. Bu dasturlar tasviriy san'atni xar bir sinfda qaftasiga 2 soatdan o`qitilishiga mo`ljallab tuzilgan edi.

Shuningdek, bu davrlarda to`garaklar uchun Q. Qosimovning «Naqqoshlik», A. Vosiqovning «Rangtasvir», A. Mirzaxmedovning «Yog`och o`ymakorligi», O. Xudoyorovanning «Kashtachilik» dasturlari ham nashr etildi.

1980 yillarda O`zbekiston umumiy o`rta ta`lim maktablarida tasviriy san'atni o`qitishni takomillashtirish maqsadida keng ko`lamda kadrlar tayyorlash, ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar o`tkazish, o`qituvchilarni tegishli ilmiy va metodik adabiyotlar bilan ta`minlash, san'at bayramlari tanlovlar o`tkazish kabi bir qator ishlar amalga oshirildi. Shunga qaramasdan, umumiy o`rta ta`lim maktablarida tasviriy san'atni o`qitilishi talablar darajasida bo`la olmadi. chunki, maktablarda dars olib borayotgan o`quvchilarning ko`pchiligi maxsus ma'lumotga ega emas edilar. Tasviriy san'atni o`qitishdagi moddiy-texnikaviy asos, xususan, darslar uchun zarur bo`lgan gipsli geometrik shakllar, qush va hayvon tulumlari, meva va sabzavotlarning mulyajlari, tablisa va reproduksiyalar, dipozitiv, diafil'm, kinofil'mlar Rossiyadan keltirilayotganligi sababli ular ko`pchilik maktablarda mavjud emasdi. Maktablarda xonalarning yetishmasligi oqibatida ko`pchilik joylarda tasviriy san'at xonasi tashkil etilmay qolardi

1.2. Tasviriy san`at tur va janrlari.

Tasviriy san`at taraqqiyoti, uning nazariy asoslarini shakllanishi jarayoni ibtidoiy jamoa davridan boshlab nihoyatda uzoq yo`lni bosib o`tdi. Ushbu soha taraqqiyoti ayrim davlatlar bilan chegaralanib qolmasdan, yer sharining barcha qit`alarida, barcha davrlarda izchil rivojlanib bordi. Bu borada san`atshunos va tarixchilar tomonidan nihoyatda ulkan va boy meros to`plangan.

Ma`lumki, san`atning turlari nihoyatda ko`p bo`lib, ularning eng asosiylari sifatida adabiyot, musiqa, kino, teatr, me`morchilik, amaliy bezak, sirk, televideniya, tasviriy san`at kabilarni alohida e`tirof etish mumkin.

"Tasviriy" atamasi "tasvirlash" so`zidan olingan bo`lib, unda turli material, xususan, bo`yoq, tosh, gips, shuningdek, boshqa badiiy va turdosh materiallar yordamida har xil timsollarning va narsalarning rasmi, haykalini ifodalash tushuniladi¹.

Tasviriy san`at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, xalqlar tarixini o`rgatishga xizmat qiladi. Tasviriy san`atning paydo bo`lishi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Bu vaqtda kishilar tevarak-atrofdan sodir bo`layotgan voqealarni, odam va hayvonlarning tasvirini toshlarga chizib, ularni kesib turli ko`rinish va mazmundagi haykallarni yasaganlar. Qadimdan kishilar tabiat hodisalari va kishilarning o`zaro munosabatlari, faoliyatlariga, san`at ijobiy ta`sir ko`rsatadi, deb hisoblaganlar.

Ayni paytda tasviriy san`at asarlari kishilarning his tuyg`ulariga kuchli ta`sir ko`rsatish imkoniyatiga ham egadar. Kishilar tasviriy san`at asarlarini tomosha qilish orqali, ularda ifodalangan go`zallikni ko`rish orqali o`z hayotlarida ana shunday go`zallikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonlarni ko`rib esa ularga o`xshashga intiladilar. San`at asarlarida ifodalangan salbiy voqealar, xunuk xatti-harakatlarni ko`rib, ulardan muayyan xulosalar chiqaradilar, bunday hodisalardan yiroq bo`lishga intiladilar.

¹ N.D Abdullayeva San`at tarixi T: "O`zbekiston" 2006. 104 b.

Ayniqsa, tarixiy mavzudagi san'at asarlarini tomosha qilganda, o'sha davrdagi tabiat manzaralari, narsa va buyumlar, mehnat va jang qurollari, kishilar hayoti, urf-odatlar bilan tanishadilar, tasavvurga ega bo'ladilar (1-rasm). Rassomlar o'z asarlarida hayotni qanday ko'rsalar shunday emas, balki undagi alohida e'tiborga molik, harakterli ko'rinishlarni tanlab oladilar, eng muhimlarini esa bo'rttirib ko'rsatadilar va bo'rttirish orqali rassomlar narsa va hodisalarning kishilar tafakkuri va hissiyotlariga samarali ta'sir ko'rsatishga erishadilar.



1-rasm

Rassom borliqni shunchaki biladigan kishigina emas, balki u avvalo, boy tasavvur va tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lgan ijodkordir. U o'z ijodida borliqni shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki unga asoslangan holda nimalarnidir o'zi o'ylab topadi, tasavvur etadi va to'qiydi. Demak, san'at asarlari o'z mazmunida borliqni aks ettiribgina qolmasdan, ayni paytda ular rassomning g'oyalarni ifodalaydi, tomoshabin ongini boyitadi. Shu bilan birga bunday asarlar, kishilar ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib, ular ma'naviy olamini bilim va tajribasini kengaytiradi.

O'zbekiston hududida tasviriy san'atning taraqqiyoti (Afrasiob, Varaxsha, Tuproq qal'a v.b. joylardan topilgan tasviriy san'at namunalari). Tasviriy san'atning turlari (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik) va janrlari (manzara, turmush, natyurmort, portret, tarixiy, batal, animal, afsonaviy, marinavistik).

Tasviriy san'atning uch turi mavjud:

1. Rangtasvir. 2. Haykaltaroshlik. 3. Grafika.

Rangtasvir deb - tekis yuzada rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytiladi. Bu tur uchun asosan bo'yoqlar - moyli bo'yoq, akvarel, guash, tempera, shuningdek, rangli qalamlar, ko'mir, qalam, pastel, sous, sangana kabi badiiy materiallar bilan ishlash harakterlidir.

Rangtasvir asarlari yog'och, mato, karton, devor, oyna, yog'och kabi tekis yuzalarga ishlanadi. Rangtasvir asosini rasm tashkil etadi. Har qanday rangtasvir shaklida, avvalo, uning rasmi ishlab olinadi. Unda kompozitsiya, nur va soya, rang asosiy o'rin egallaydi.

Rangtasvir asarlari bajarilish texnikasi jihatdan turli-tuman bo'lib, ular moybo'yoq, temlerali, freskali, mozaikali, akvarel, guashli, nastelli bo'lishi mumkin.

Rangtasvir quyidagi turlari mavjud: I. Dastgohli rangtasvir. 2. Monumental (mahobatli) rangtasvir 3. Miniatyura (mo'jaz) rangtasviri. 4. Dekorativ (bezak) rangtasvir. 5. Teatr-dekorativ (bezak) rangtasviri. Bular - *freska, mozaika, vitraj*.



2-rasm

Dastgohli rangtasvir deyilganda, rassomlarning maxsus asbob-dastgoh (molbert) yordamida ishlaydigan Sur'atlari tushuniladi (2-rasm). Dastgohli Rangtasvir asarlari uncha katta bo'lmagan o'lchovda yuqorida qayd qilib o'tilganidek mato,

karton, oyna, faner kabi tekis yuzali materiallarga bo'yoqlar bilan ishlanadi. Dastgohli rangtasvirda qo'shimcha moyli va akvarel bo'yoqlar qo'llaniladi.


Monumental rangtasvir atamasi monumental (mahobatli), ya'ni katta o'lchovdagi rangtasvir ma'nosini anglatadi va bu turdagi asarlar qo'rg'oncha binolarning ichki-yu tashqi ko'rinishlari, tempera bo'yoqlari bilan ishlanadi.

Monumental rangtasvir asarlarinin freska, mozaika, vitraj kabi turlari mavjud. Freskalar asosan bino devorlarining o'ziga, shunipdek, yupqa matolar yordamida ishlanadi.

Mozaika — turli tabiiy va ikkilamchi materiallar — rangli oyna bo'laklari, tonshar, materiallardan bino devorlariga yoki tekis materiallar ustiga ishlanadi

Vitraj esa binolarniig deraza, eshik, oynalari ustiga bo'yoqlar yordamida ishlanadi. Vitrajlar uy ichkarisi va tashqarisidan ham bir xil ko'rinadi.

Minatyura (mo'jaz) rangtasviri deyilganda: bejirim, juda kichik, jajji, nozik san'at asarlari tushuniladi. Miniatyura rang tasviri o'rta asrlarda kitob bezagi bilan bog'liq holda rivoj topdi. Rangtasvirning bu turi Sharq, shu qatori Movarounahrda katta shuhrat qozongan (3-rasm). Shuningdek, bu tur mustaqil san'at sifatida yildan-yil ommalashib bormoqda.



3-rasm

Dekorativ rangtasvir asarlari mustaqil amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u binolarning ichki-yu tashqi devorlarini bezatishda keng qo'llaniladi. Ular panno shaklida, shuningdek, quticha, patnis, sandiq, shkaflarni bezatishda qo'l keladi.

Bino ichini bezatishga xizmat qiladigan naqshlar, frizlar kabi mayda elementlar ham dekorativ rangtasvirga kiradi.

Teatr dekorativ rangtasviri: spektakl dekoratsiyalari, unda ishlatiladigan ayrim, sahna jihozlari bilan bog'liq. Ular teatr rassomi tomonidan tayyorlanib, spektakl mazmunini tomoshabinga keng va chuqurroq singdirishga yordam beradi. Bu bezaklarda rassomlar (4-rasm) sahnaning yoritilishi va ranglarga alohida e'tibor qaratadilar. Spektakl bezaklarini unda ifodalash voqea sodir bo'layotgan joy, davr, muhit to'g'risida tomoshabin tasavvurlarini boyitadi, voqealarni idrok etishni osonlashtiradi va faollashtiradi².



Tasviriyy san'at nazariyasi va amaliyotida akademik rangtasvir iborasi ham ishlatiladi. Akademik rangtasvir asosan o'quv jarayonida foydalaniladigan ko'rgazmali rangtasvir ishlari nazarda tutadi.

Haykaltaroshlik ham xuddi

4-rasm

rangtasvir kabi hayotiy voqea va hodisalarni turli uslub va tasvirlash texnikasi hamda materiallar yordamida ifodalaydi. Haykal taroshlikda tosh, metal, ganch, vosk (mum), sim kabi materiallar keng qo'llaniladi.

Haykaltaroshlik asarlari kesish, yopishtirish, ulash va o'yish, quyish orqali bajariladi. Haykaltaroshlik asosan ikki turi mavjud bo'lib, ularning birinchisi to'liq yumaloq haykallar, Ikkinchisi esa relefli - bo'rtma haykallardir. Yumaloq haykallarni har tomondan ko'rish mumkin bo'lsa, relefli haykallarni faqat bir tomondan, ya'ni oldindan ko'rish kerak bo'ladi. Relif haykallar tekislik ustiga

² N.D Abdullayeva San'at tarixi T: "O'zbekiston" 2006. 118 b.

ishlanib, yuzadan qisman boʻrtib chiqqan boʻladi. Relefli haykallarning ham ikki xili boʻladi:

1. Barelefda tasvir qalinligining yarmidan kam boʻrtib chiqqan boʻladi.
2. Gorelefda esa bu qalinlikning yarmidan koʻprogʻi boʻrtib turadi.

Haykaltaroshlikda maʼlum miqdorda rangdan ham foydalaniladi. Soʻnggi yillarda asarlari mumi (vosk)dan haykal ishlash texnikasi qoʻllanila boshlandi. Bunda rangli mumlardan kengroq VII asrdan buyon foydalanilmoqda. Haykallar shakl va mazmun jihatdan realistik, dekorativ va abstrakt yoʻnalishlarda boʻladi.

Realistik haykallarda odam, hayvon va boshqa tasvir obektlari haqiqiy koʻrinishda ifodalansa, dekorativ haykallarda ular stillashgan (5-rasm), yaʼni shakl, oʻlchov, perspektiva va boshqa jihatlardan maʼlum darajada oʻzgartirilib ifodalanadi. Abstrakt haykallardagi obʼektlar shakl, mazmun, oʻlchov va boshqa jihatlardan mavhumlashtirilgan holda tasvirlanadi.



5-rasm

Haykaltaroshlar oʻz faoliyat ila ish quroli sifatida quyidagi asboblardan foydalanadilar: maxsus dastgoh, bolgʻa, bolta, sirkul, iskana va boshqalar. Iskanalarning toʻgʻri burchakli, uchburchakli, trapetsiya burchakli, chuqur shakl beruvchi

yoysimon turlari boʻladi. Shuningdek, haykal loyi ustidagi ortiqcha qismini tortib olish uchun qattiq metallardan tayyorlangan doira, ellips, uchburchak, toʻgʻriburchak, trapetsiya shaklidagi sidirgʻichlar qoʻllaniladi. Shuni ham qayd qilish lozimki, haykaltaroshlikda qoʻllaniladigan uskanalar turli oʻlchovda, toʻzilishda va shaklda boʻladi.

Haykaltaroshlik dastgohli, monumental, yodgorlik (memorial) dekorativ va monumental-dekorativ turlari mavjud³.

Dastgohli haykaltaroshlik iborasi haykallarni maxsus asbob (dastgoh)ga oʻrnatib qoʻlanganidan kelib chiqqan (6-rasm). Bunday haykallar mustaqil amaliy ahamiyat kasb etib, ular jamoat binolari va uy joylarning ichki qismi, shuningdek, istirohat bogʻlari, muzey va koʻrgazma zallariga moʻljallab yaratiladi.

Dastgohli haykallarning oʻziga xos xususiyatlaridan yana biri. ularda gasvirlanayotgai ob'ektlarning haqiqiy, ya'ni hayotdagi oʻlchamda yoki undan kichik boʻlishidadir.

Dastgohli haykallarning asarlari yaqindan koʻrishga moʻljallangan boʻlib, unda portret asosiy oʻrinni egallaydi. Haykaltaroshlikda timsollik (harakat bosh qismi elkasi tasvirlanadi, bunday asar byust deyshadi. Ularda odam boʻyi-basti bilan tasvirlansa, bu fiturali portret deb yuritiladi. Shuningdek, yarim furali portretlar ham boʻladi.



6-rasm

Mahobatli haykaltaroshlik iborasi monumental, yirik. mahobatli haykal ma'nosini anglatadi. Ular maydon va koʻchalarga xalqommasi uchun moʻljallab oʻrnatiladi. Bunday haykal lar tarixiy voqealar yoki alohida mashhur shaxslarniig nomlarini abadiylash-tirish maqsadida oʻrnatiladi. Monu-mental haykallar uzoqdan koʻrishga moʻljallangan boʻlib umumlashtirilgan tarzda atrof-muhit bilan bogʻliq holda yaratiladi. Monumental haykal-taroshlikning alohida yoʻnalishparidan biri - bu monumental-dekorativ hay-kaltaroshlikdir. Bu yoʻnalishdagi asarlar ham

³ N. Abdullaev. Sanʼat tarixi. 1 – tom. –T.: “Oʻqituvchi”. 1986. 98 b

monumental haykaltaroshlik asarlari kabi keng xalq ommasi uchun mo'ljallangan bo'lsada, ko'proq bezak vazifasini bajaradi. Mahobatli – dekorativ haykallar ko'cha va maydonlarni, bino va istirohat bog'larini, fontanlarni bezatishda ishlatiladi.

Ularda odam, hayvon, baliq va qushlar tasviri ifodalanadi. Bunday haykallar yirik o'lchamda bo'lganliti sababli, ularni bemalol uzoqdan ko'rish mumkin. Mahobatli asarlarning umumiy o'lchami, hajmi, proporsiyalari tevarakatrof, tabiat va binolarga moslab ishlanadi.

Mahobatli-dekorativ haykallar garchi mahobatli bo'lsa-da, ular ham to'liq hajmli va Relikli qilib ishlanishi mumkin.

Plastik haykaltaroshlik — haykaltaroshlikning bir turi sifatida monumental haykallarda, yodgorlik haykallarda, shuningdek, binolarning ichki va tashqi bezak ishlarida keng qo'llaniladi. Ular o'lcham jihatdan kichik bo'lib, mustaqil amaliy ahamiyat kasb etadi. Maxsus loydan ishlanadigan kichik o'lchamdagi o'yinchoq haykallar ham plastik dekorativ haykallar hisoblanadi. Ularni ba'zan mayda plastika deb ham atashadi. O'zbekistonda haykaltaroshlikning bu turida usta kulollardan X.Rahimova, U.Jo'raqulov, A.Muxtorov kabi xalq kulol ustalari samarali mehnat qilganlar.



7-rasm

Dekorativ haykaltaroshlikning yana bir turi borki, ular kichik o'lchamdagi metall, marmar, yog'och, suyak, chinni kabi materiallardan ishlanadi. Ular ham dekorativ, ham rangtasvir tarzda ishlatilishi mumkin. Bunday haykallar kitob javonlari, yozuv stollarini bezashadi.

Grafika. "Grafika" — lotincha so'z bo'lib, "yozaman, chizaman" degan ma'noni bildiradi va tasviriy san'atning turlaridan biri hisoblanadi. Grafikaning turlaridan biri gravyuradir.

"Gravyura" fran- suzcha soʻz boʻlib, "kesish" maʼnosini bildiradi (7-rasm). Bunda rasmlar qattiq materiallarga chizish va kesish orqali bajariladi. Bu rasmlar avvalo metall, linoleum, yut kabi materiallarda ishlanib, keyin undan qogʻozga koʻp tirajda koʻchiriladi. Metallda tayyorlanadigan grav- yurani ofort, yogʻochdagisini ksilografiya, lenoliumdagisini-linogravyura, tosh orqali taʼsirlanadiganini esa litografiya deb yuritiladi.


Grafika asarlarning qoʻllash sohalari nihoyatda kengdir. Xususan, estam, kitob illyustratsiyalari, plakat, pochta markalari, gazeta-jurnal bezaklari, karikaturalar, (hajviy rasmlar) etiketka va oʻrama (upakovka)lar, teatr va kino afishalari, yoʻl va tovar belgilari, tashkilot va muassasalarning blankalari shular jumlasidandir⁴.

Kitob grafikasining ilk vatani Sharq hisoblanib, XV—XVII asrlarda bu sohada sharq musavvirlaridan Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Muhammad Murod Samarqandiy, Sultgon Muhammad, Qosim Achi, kabilar shuxrat qozongan boʻlsalar, XX asrda Oʻzbekistovda I.Ikromov, V.Kedrin,

O.Osheyko, Q.Basharov, T.Muhamedov, I.Kriakidilar sermahsul ijod qildilar.

Grafikaning oʻziga xos xususiyatlaridan yana biri bu — uning katta oʻlchamda boʻlmasligi va boʻyoqlar sonining chegaralanganligi hisoblanadi. Shuning uchun ham grafika asarlarida faqat chiziq yoki toʻq rangli tasvir ishtirok etadi. Baʼzan grafik tasvirlar har xil rangli boʻladi (8-rasm).

Ayrim grafika asarlari katta oʻlchamda, va koʻp nusxada tayyorlanadi hamda katta tarbiyaviy vazifalarni bajaradi



8-rasm

⁴ N. Abdullaev. Sanʼat tarixi. 1 – tom. –T.: “Oʻqituvchi”. 1986.114 b

Grafika san'atida estami ham katta o'rin egallaydi. Estami yaratish uchun avvalo tasvir maxsus asboblardan qattiq materiallar (tosh, yog'och, linoleum) o'yin orqali tushiriladi. So'ngra o'yilgan material ustiga bo'yoq beriladi va undan qog'ozga tasvir olinadi. Estamp uchun shu narsa xarakterliki, unda gravyura bosmadan chiqqanidan so'ng rassom unga ba'zi bir tuzatishlar kiritadi va asar tagiga o'z imzosini qo'yadi. Grafika texnikasining keng tarqalgan turlaridan yana biri bu -illyustratsiyalardir. Qadim-qadimdan tasviriy san'at bezagi bilan chambarchas bog'langan holda rivoj topgan. O'rta asrlarda Sharq va G'arb mamlakatlarida yaratilgan kitoblarning deyarli ko'pchiligi naqshlar va rangli rasmlar bilan bezatilgan. Bu rasmlarda kitob mazmuni o'z aksini topar edi. Keyinchalik, kitob bosish dasgohlari ixtiro qilinganidan so'ng, illyustratsiyalar kitoblarda yanada katta o'rin egallay boshladi. Ilyustratsiyaning ahamiyati shundaki, birinchidan u kitobni bezakli, chiroyli va yoqimli bo'lishiga yordam beradi, Ikkinchidan adabiy obrazlar-timsollarni aniq va jonli bo'lishiga, o'quvchining yodida yaxshi saqlanib qolishiga xizmat qiladi (8-rasm).

Rassom biror bir adabiy asarga illyustratsiya ishlashga kirishishdan avval, mazkur asarni yaxshilab o'rganib chiqishi bilan bir qatorda, asardagi voqea sodir bo'layotgan davrga doir materiallarni ham to'plashi, o'sha davr odamlarining madaniyati va turmushini, mamlakat tabiatini bilib olishi kerak bo'ladi.

O'zbek xalq ertagining bir turi hisoblanadi. "Karnay ko'targan bola" asosida unda hayotdagi ayrim salbiy ishlangan illyustratsiya hodisa va ko'rinyshlar, shaxslar hajviy yoki hazil tarzda rasmlar orqali tanqidiy tasvirlanadi


Grafikaning reklama, afisha, etiketika, o'rama (upakovka) kabi turlari ham keng tarqalgandir. Gazeta, jurnal grafikasi ham shriftlar bilan bog'liq bo'lib, amaliyotda keng qo'llaniladi.

O'tgan asring 60 yillarida o'zbek grafik rassomlari milliy tasviriy san'atning badiiy an'analarini davom ettirib, yuksak badiiy saviyadagi asarlarni yaratgandilar. Shunday rassomlardan biri I.Ikromovdir. Iskandar Ikromov tomonidan

A.Navoiyning "Lirika" nomli to'rt jildlik she'rlar to'plamiga ishlangan rasmlar rassom ijodining gultoji hisoblanadi⁵.

Bu ish 1960 yilda Toshkentda Markaziy Osiyo rassomlarining hududiy kotkrerspsiyasi munosabati bilan ochilgan ko'rgazmada e'tirof etilib, yuksak taqdirlangan. Kitobning muqova jildi nihoyatda original va betakror bo'lib chiqqan. Undagi tovus tasviri asarga mos lirik xususiyat kasb etadi. Muqova yuzasidaga grafik belgilarining bir tekisligi, tovus tasvirinipg nafis ranglar bilan ifodalanishi, qushning orqa tomonidagi havorang buvqtar bilan berilgan gul shalida shuningdek, qizil rangda yozilgan kitob nomi uning yuqori badiiy saviyasini ta'minlagan.

Tasviriy san'atda: manzara, maishiy, natyurmort, portret, tarixiy, animal, (ya'ni hayvonot olamiga oid) afsonaviy, dengazmavislik, nyu, inter'er janrlari mavjud. Masalan, asarlarda odam rasmi ishlansa "Portret", tabiat ko'rinishlari tasvirlansa "Manzara", turmush va mehnat jarayonlari tasvirlansa "Maishiy" janrga xos bo'ladi. Shuningdek, tarixiy voqealarni tasvirlasa tarixiy janr, harizonlarni tasvirlash animal janr deb yuritiladi. "Animal" janri lotincha "anima" so'zidan kelib chiqqan bo'lib hayvon ma'nosini anglatadi. "Vatan" janri esa fransuzcha "batay" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, jang, "nyu" janri fransuzcha yalang'och



9-rasm

ma'nosidagi so'zdan kelib chiqqandir. Ayrim asarlar bir paytning o'zida ikki va undan ortiq janrga mansub bo'lishi mumkin. Masalan, norarst va nyu, deshiznavislik, interkr, manzara va hokazolar.

Har bir janr o'z o'rnida yana bir qancha janrlarga bo'linishi mumkin. Masalan, manzara janrini tabiat manzarasi janri,

⁵. Oydinov N. Ajdodlarimiz san'ati va etiqodi. T. 1992.54 b

shahar manzarasi janri, industrial-sanoat binolari ko‘rinshtsh manzarasi janriga yoki, portret janrini tantanavorlik, ishqiy, guruhli janrlarga bo‘lish mumkin.

Vaqt o‘tishi bilan janrlar tabaqalashib, mustaqil tus olishi ham mumkin. Masalan, manzara janridan dengiz- navislik, tarixiy janrdan batal, manzara janridan interer ajralib chiqqan.(9-rasm)

Manzara janri. Tasviriy sa‘natda tabiat, shahar, industrial-sanoat, interer ko‘rinishlarining tasvirlanishi manzara janriga ta‘luqlidir.

Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiatning haqiqiy, ya‘ni hayotiy ko‘rinishini tasvirlasa, boshqalarida borliq ijodiy tarzda, hayolan ifodalangai bo‘ladi. Ba‘zan bu ikki hol bir asarda kuzatilishi ham mumkin.

Manzara janrining paydo bo‘lishi juda uzoqlarga borib taqaladi. Manzara tasvirlarinish keng tarqalishini qadimgi Sharq va Krit orollaridagi qadimgi arxeologik qazilmalar misoliida ko‘rish mumkin.

Masalan, eramizdan avvalgi davrlarga oid Beni-Hasandagi qabr toshida yovvoyi mushuk ovi tasvirlangan. Manzara janri mo‘staqil ravishda Xitoyda VI

asrda paydo bo‘lgan bo‘lsa, Evropa tarafda Uyg‘onish davrida ilmiy negizda, ya‘ni chizish va havo (rang) perespektivasi asosida shakllangan.

Manzara janrining ikki xili mavjud. birinchisi mustaqil manzara bo‘lib, unda faqat manzara aks ettiriladi. Ikkinchi turida manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretning (10-rasm) orqa tomonida tabiat yoki shahar manzarasi ta’sirlanshi mumkin. Manzara janrida samarali ijod qilgan va san‘at ixlosmandlariga manzur bo‘lgan




10-rasm

rassomlardan I.Levitan I.Shishkin, O‘.Tansiq-

boev, I.K.Ayvazovskiy, N. Klahaya kabilarni alohida tilga olish mumkin. Manzara janrining alohida shakllaridan biri bu interer hisoblanadi. Interer binolarning ichki qismi ko‘rinishlarini ifodalaydi.

Bu janr qadimga Misr, Xitoy rassomchilikda ko‘p uchraydi. Qadimga misrliklar va xitoyliklar o‘z g‘oyalarida intererni aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perspektiva qonunlari asosida tasvirlay olganlar. Bu janrda ijod qilib

Joggo, A. Verrokko, Leonardo da Vinchi,



11-rasm

Rembrandtlar shuhrat qozonganlar⁶ Manzara janrining Ikkinchi bir ko‘rinishi bu dengiznavislik janridir. Unda asosan (11-rasm) dengiz ko‘rinishlari va undaga hodiastalar tasvirlanadi. Marenistik janrining shakllanishida buyuk rassom I.Ayvazovskining xizmatlari katta bo‘lgan. Bu

ulug‘ rassom o‘zining umrini faqat dengaz ko‘rinishlarini tasvirlashga bag‘ishladi. Uning "To‘qqizinchi val", "Chesmen jangi", "Qora dengiz", "To‘lqinlar orasida" kabi asarlari jahon tasviriy san‘atida munosib o‘rinni egallaydi.

Dengiznavislik janridagi asarlarda boshqa janrlarga xos elementlar ham ifodalanishi mumkin. Masalan, portret, manzara, tarixiy, maishiy va hokazolar. Manzara janri ko‘proq rangtasvirda, qisman grafika va haykaltaroshlikda qo‘llaniladi. Haykaltaroshlikda manzara asosan uning Relef turida ishlatiladi. Haykaltaroshlikda manzara ko‘rinishlari asosiy emas, balki to‘ldiruvchi, qo‘shimcha ahamiyat kasb etadi. Natyurmort janri. "Natyurmort" so‘zi fransuzcha bo‘lib "jonsiz narsalar (natura)" ma‘nosini anglatadi. Bu janrdan asosan (12-rasm)

⁶ N. Oyidinov O‘zbekiston tasviriy san‘ati tarixidan lavhalar. T: “O‘qituvchi” 1997. 91 b.

rangtasvir va grafika asarlarida keng qo'llaniladi. Tasviriyl san'atning bu janrida gullar, mevalar va sabza- votlar, quyonlar, baliqlar, oziq-ovqatlar, turli predmetlar aks ettiriladi.

Natyurmort mustaqil janr sifatida XV-XVI asrlarda Gollandiya va Ispaniyada paydo bo'lgan.

Natyurmortning ikki turi mavjud. Birinchisi mustaqil ravishdagi natyurmort bo'lsa, Ikkinchisi yordamchi yoki to'ldiruvchi natyurmortdir. Natyurmort birinchi turda faqat natyurmort tasvirlansa, Ikkinchi turdagi natyurmort bironta portret yoki maishiy janrdagi tasvirda qo'shimcha detal sifatida ishlangan bo'ladi. Natyurmortning harakterli xususiyatiuning hayotdan, go'zallikdan zavqlanishga yo'naltirilganidadir. Bu vazifa meva-sabzavotlar, oziq-ovqatlarni turli ko'ringan va ranglarda ifodalab, kishilarning his-hayajonini uyg'otish orqali bajaradi.




12-rasm

Natyurmortning turli millat va elatlarning turmush tarzi haqida ma'lumotlar berishi ham o'ta muhimdir. Mutaxassislar natyurmortning kishilarga ikki xil turini qayd qilishadi. Birinchisida, natyurmort kishilarni go'zatlikka oshno etib ularni hayotdan zavqlanishga chorlaydi. Agarda u meva-sabzavot va oziq-ovqatlar tasviridan tashkil topgan bo'lsa, tomoshabinga yaxshi kayfiyat va ishtaha baxsh etadi.

Ikkinchisida natyurmort o'zi haqida emas, balki u bilan bog'liq shaxs uning egasi haqida ma'lumot beradi. Bunday natyurmortlarda kishilar aks etmasa-da, biroq uning didi, ijtimoiy mavqei ifodalanadi. Natyurmortlarning bu ikki xili yaxlit holda ifodalanishi ham mumkin. Bu janrlarda ijod qilgan rassomlardan J. Sharden, F.Snayders, I.Mashkov, P. Konchalovskiy, L. Salimjonovalar katta shuhrat qozonganlar.

Maishiy janr. Bu janrdagi asarlar kishilarning maishiy turmush tarzi, (13-rasm). mehnati, kundalik hayoti bilan bog‘liq bo‘lib, ularda ko‘proq oila, maktab, dam olish, shaxsiy va ijtimoiy hayot jarayonlari aks ettiriladi. Maishiy janrdagi asarlar nafaqat hozirgi kun odamlarining balki o‘tmishdagi kishilarning turmush tarzi va hayoti haqida ham keng ma’lumot beradi. Tasviriy san’atda maishiy janr XVII asrda Gollandiyada paydo bo‘lgan. Bu janr o‘z mazmuni jihatdan ancha murakkab bo‘lib, natyurmort, manzara, animal va boshqa janrlar bilan bog‘liq tarzda yaratiladi. Maishiy janr ko‘proq rangtasvirda, ba’zan esa grafika va haykataroshlikda ham ishlatiladi.



13-rasam

Maishiy janrda ijod qilgan rassomlar tarixda nihoyatda ko‘p bo‘lib, ulardan eng



14-rasm

mashhurlari sifatida turli zamon va makonlarda yashab ijod etgan Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Ilya Repin, Z.Inog'omov, J.Umarbekov, A.Sikeyros, R.Kentva boshqalarni tilga olib o'tish mumkin.

Portret janri. "Portret" fransuzcha "portrait" so'zidan olingan bo'lib, kishilarning chehrasidagi xuddi o'ziga o'xshatib (14-rasm) tasvirlash ma'nosini bildiradi. Portretda kishilar yakka, ikki

kishi yoki bir guruh sifatida tasvirlashi mumkin. Portretda odamlarning faqat bosh, ba'dan ular beligacha yoki bo'yi-basti bilan tasvirlanishi mumkin. Portret tasviriy san'atning uchala turida ham qo'llaniladi. Portret harakteri jihatdan monumental, dastgohli, ishqiy, hajviy bo'ladi⁷.

Rassomlarning ijodida uning avtoportret xili ham keng tarqalgan. Avtoportretni rassom oynadagi o'z aksiga qarab yaratadi. Manzara janrida samarali ijod qilgan va san'at ixlosmandlariga manzur bo'lgan rassomlardan I.Levitan, I.Shishkin, O'.Tansiqboev, I.K.Ayvazovskiy, N.Klrahaya kabilarni alohida tilga olish mumkin. Manzara janrining alohida shakllaridan biri bu interer hisoblanadi.

Interer binolarning ichki qismi ko'rinishlarini ifodalaydi. Bu janr qadimga Misr, Xitoy rassomchilikda ko'p uchraydi. Qadimgi misrliklar va xitoyliklar o'z g'oyalarida interer ni aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perspektiva qonunlari asosida tasvirlay olganlar.

Bu janrda ijod qilib Joggo, A.Verrokko, Leonardo da Vinchi, Rembrandtlar shuhrat qozonganlar. Yuqorida bajarilgan mashqlar, asosan, boshni rang tasviriga qaratilgan edi. Portret kompozitsiyasi, badiiy obraz, umuman ijodiy vazifalar to'g'risida so'z yuritmadik. Kompozitsiya darslarida bu mavzu muhim o'rin tutadi.

⁷ N. Oyidinov O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar.T: "O'qituvchi" 1997. 98 b.

Rangtasvir xususiyati ustida gap ketganda bu mavzuga qo'shimcha ijodiy portretning ba'zi bir talablari haqida fikr yuritsak.



15-rasm

Portretning to'g'ri topilgan yechimi uning plastik harakteristikasi, ruhiy holati, psixologiyasini, shuningdek uning millatini ham aniq ochib beradi. Tomoshabinning asosiy diqqati portretning bosh, yuz qismiga ko'proq qaratilgan bo'ladi. Portretida eng muhimi uning ko'rinishi va yuz ifodasidir. Aynan shu ifodada insonning (15-rasm) ichki ruhiy dunyosi aks etadi. Inson harakterini umuman butun borlig'ini yorqin namoyon etadigan ifodani topish juda muhimdir.

Boshqa detallar esa uni to'ldiradi va kuchaytiradi. Inson tasvirida ko'z, burun, lablar uning harakterini ifodalaydi. Portiretda qo'llar ham muhim ahamiyatga ega. Qo'llarga qarab odamning kasbi, harakteri hatto bajaradigan ishini ham aniqlash mumkin (16- rasm).



16- rasm

Bosh harakteri uning burilib, egilib turishi yuz mimikasi gavdaning umumiy holati insonning harakterini ochishga yordam beradi. Insonning ichki ruhiy holatini ifodalash rassom ning muhim, asosiy vazifasidir. Harakterli ishoralar ham rassom nazaridan qolmasligi zarur. Ular yuz ifodasi - Leonardo da Vinchi. Jakonda, (Mona Liza portreti)ga mos bo lishi kerak. Inson dunyoqarashi uning ruhiyati, har bir harakati, o'zini tutishi, voqealarga bo'lgan munosabati, fikrlashi ham obrazni to'laqonli yoritishga yordam beradi. Harakat insonning eng zo'r o'ziga xos harakteridir. Bu narsani faqat mavzuli asar ishlaganda emas, portret ustida ish yuritish jarayonida ham unutish kerak emas (17-rasm).



17-rasm

II BOB. *DEKORATIV RASM CHIZISHDA NAQSH ELEMENTLARI* *HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR.*

2.1. O'zbek xalq amaliy san'ati, uning tarixi, turlari, naqqoshlik san'ati.

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'at turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelib gullab yashnagan san'at turlari bemisil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, o'zbek amaliy bezak san'ati turlarining shox ildizlari insoniyatning bolaligi, ya'ni ibtidoiy jamiyatga borib taqalishining guvohi bo'lamiz.

O'lkamiz zaminidagi qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan va asrlar osha hozirgacha davom etib qolmoqda.

Amliy san'atga bu qadar chuqur falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stilizatsiya-ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o'zbek milliy bezak san'atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo'lganki, hozirda jahonga mashhur me'morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, hattotlik, toshtaroshlik va boshqa turdagi san'atlarning ajoyib darljada uyg'unligidan va mujassamligidan iboratdir. Xalq amaliy bezak san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o'zbek xalq amaliy san'ati kishilarni badiiy axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularnpg ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda, hamda madaniy darajasini oshirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.


Yaqin o'tmishda o'zbek amaliy bezak san'atining eng rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, bo'y-rachilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga

xos atamalar, bu san'atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari butun jahonga dongi ketgan.

O'rta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishda otabobolarimiz qo'rgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar hozirgacha bizni hayratga solib kelmoqda.

Naqsh arabcha tasvir, gul degan ma'noni bildiradi (1-rasm). Qush, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa shakllarni ma'lum tartibda takrorlanishidai hosil qilingan bezakdir.

Islom talablariga bo'ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo'qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o'zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vazifasini bajardi.




1-rasm. Targ'il tortilgan naqsh bo'laklari namunalari.

Naqqoshlik xalq-amaliy bezak san'atning bir turi sifatida qadimdan o'zbek madaniyatining muhim bo'lagi hisoblanadi. Ko'p asrlar mobaynida uning badiiy an'analari vujudga keldi. Naqshlarda san'atning boshqa hamma turlaridan farqli ravishda avlodlarning chambarchas bog'liqligini, an'analarning davomiyligini ko'rish mumkin. Naqqoshlik an'analari san'atning ana shu turini o'rganish

metodlari sifatida ham bobodan otaga, otadan bolaga o'tib kelgan. Ana shu daiomiylik tufayli naqsh san'ati hozirgacha saqlanib kelmoqda. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go'zalligi bilan farqlanadi. Bunda xalq ustalarining atrof muhitga qarashlaridagi tafovut aks etadi. Naqshdagi chizgilar o'yini musiqadagi ohang singari, qo'shiq va ertak kabi «xalq hayotiy tajribasining katta umumlashmasidan» iborat bo'ladi.


Badiiy naqqoshlik ranglarning usullarida va o'ziga xos kompozitsiyalarda go'zallik yaratish san'atidir. Naqqosh usta o'z ishida rangning tabiiy jilosidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib yorqin ifodalikka erishadi.

O'zbekistonning an'anaviy me'morchiligida naqqoshlik asosan shiftlarni, jimjimador araqilarni, sapoy ustunlarini, masjidlar, maktablar, boylarning uylari, yog'ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo'llangan (2-rasm). Nozik o'simlik-simon-geometrik naqshdagi o'zaro singib ketgai novdalar, shoxlar va hashamatli tasvirlangan gullarnilg ritmik harakati, o'zbek ustalarining ishlaridagi islami va girix naqshlarining klassik motivlari shiftlarning moslangan.



2-rasm

Naqsh ko'proq intererlarni va yopiq ayvon, peshayvonlarni bezashga xizmat qiladi. Hozirgi paytda naqshdan me'morchilikda, uy jihozlari, sovg'alar, mayda yog'och o'yinchoqlar, musiqa asboblari va turmushda kerakli buyumlarni bezashda foydalaniladi.




3-rasm

ulardan ta'lim olgan shogirdlarning ishlarini Toshkentdagi amaliy sanat muzeyida, ko'rgazma zallarida, badiiy salonlarda, shuningdek, turarjoy va jamoat binolarida, (3-rasm) masalan, Toshkent Davlat sirki, Toshkent temir yo'l vokzali foyesi, metrostansiyalari, mehmonxonalar, kafelar, restoranlar, choyxonalar, klublar, zavod va fabrikalarning vestibyullari, dam olish xonalarida qurish mumkin. Hozirgi vaqtda maktablarda va maktabdan tashqari muassasalarda to'garaklar tarmog'ini iloji boricha kengaytirish vazifasi, xalq naqqoshlik san'atini o'rganish o'quvchilarda badiiy didni, mehnatsevarlikni rivojlantirishga va qator foydali bilim xizmat malakalarni tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Ularning ijodiy qobilnatlarini aniqlash va o'stirishga yordam beradi.


2.2. Naqsh va uning turlari jumladan, girix naqsh turi haqida umumiy tushunchalar.

Naqshlar buyumga, devorga yoki biror joyni bezamasin o'ziga xos uslubiga, texnologiyasiga va mazmuniga ega bo'ladi (4-rasm). Naqshning o'zi nima? Uning qanday turlari bor? Naqsh tili deganda nimani tushinasiz?




4-rasm

Naqsh - arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. qush, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilgan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado'zlikda, zardo'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, yog'och o'ymakorlik va hokazolarda har xil yo'llar bilan Naqshlar ishlanadi. Masalan: o'yib, chizib, chok yordamida zarb bilan kadab va boshqa usullarda naqsh solinadi.



5-rasm

Ganch o'ymakorligida ishlatiladigan naqshlar mazmuniga ko'ra - o'simliksimon, geometrik, gulli girix, ramziy va boshqa turlarga bo'linadi (5-rasm). O'simliksimon naqsh tabiatdagi barg, band, daraxt, buta, g'uncha va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma'lum qonuniyatlar asosida takror-



chiziqlardan tashkil topgan girixga bo`linadi.


Geometrik naqsh uzluksiz raportlardan tashkil topgan bo`lib, har bir raport o`z to`zilishiga ega bo`ladi. Yevropada arabeska deb yuritiladi. Gulli girix o`simlik va geometrik

lanishidan hosil qilingan. Geometrik naqsh turlaridan biri girix bo`lib, chigal, tugun ma`nosini anglatadi (6-rasm). Xandasiy naqsh murakkab naqsh turi. Geometrik naqsh marakkab naqshdan biri bo`lib to`rtburchak, uchburchak, aylana va yoylardan ko`pburchaklardan iborat bo`ladi. Tuzilishi jihatidan to`g`ri chiziq, egri chiziq va aralash

6-rasm.

naqsh elementlaridan tashkil topadi. Uning

elementlariga yuqorida sanab o`tilgan geometrik va o`simliksimon naqshlar kiradi.



Ramziy naqshlar esa kabutar, davragul, sher, baliq, davlat gerbi va boshqalarni stillashtirib tasvirlangan naqsh elementlaridan tashkil topadi.

Ota-bobolarimiz qadimiy obidalarini nafis naqshlar bilan bezar ekanlar, ulardan zavq olish bilan bir qatorda ular orqali o`z orzu-umidlarini, muhabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar (7-rasm).

Naqqosh ota-bobolarimiz inson ruhiyatini juda chuqur va har taraflama Muqannas o`rganib, uylarini ajoyib naqshu

7-rasm. nigorlar bilan boyitganlar. Naqshlangan uyda kishilar xotirjam, ruhiy osoyishtalik og`ushida bo`lishi, uzoq umr ko`rishini donishmand bobolar asrlar davomida hayotiy tajribalar asosida ilg`aganlar.

Keksa ustalarimiz aytishicha, qadimda naqqoshlik san`ati shunchalik rivojlangan ekanki, ular chizgan yoki bo`yagan naqshlari orqali bir-birlari bilan unsiz ovozda gaplasha olar ekanlar. Naqqoshlik san`ati tilini bilish uchun naqshning har bir unsuri va ranglarining ramziy alifbosini bilmoq kerak.

Amur Temur, Alisher Navoiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Xisrav, Kamoliddin Behzod, Maoniy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Bobur kabi jahonga mashxur olim, shoir va naqqoshlar binolarimizni kishilar xayolini o`ziga tortuvchi, tabiatning go`zal manzaralariga monand naqshlar bilan bezaganlar (8-rasm). Kishilarning go`zallik bilan yaqin do`st, birodar bulishga undaganlar.



8-rasm

Chunonchi, Samarqandning eski shahar markazi, ya'ni Registonda savlat to`kib to`rgan Sherdor madrasiga bir nazar solaylik. Uning peshtoklari, bahaybat

gumbazlari va chiroyli minoralari, rang-barang sirli koshinlari hamda nafis, xashamatli, dabdabali ishlangan jimjimali koplama kishini hayratga soladi.

Ushbu Madrasa (9-rasm) boshqa me'moriy yodgorliklar singari uz mazmuniga va tarixiga ega. Buxorodagi Ashtarxoniylardan Muxammad Imomqulxon davrida xonning eng ishonchli hamda yaqin kishisi, ya'ni Samarqand hokimi Yalangtushbiy Bahodir nihoyatda boyib ketgandan so'ng, Samarqanda Mirzo Ulug'bek madrasasining qarshisida 1619-1636 yillarda zamonasining mo'jizasi hisoblangan Sherdor madrasasini qurdirtiradi.



9-rasm

Bu ajoyib bino shaharning ko'rkiga ko'rk qo'shib, barcha shoiru-olimu, ulamo-yu, fuzalolar va shahar xalqining olqishiga sazovor bo'ladi, Yalangtushbiy Bahodir me'mor Abdu Jabbor oldiga hech bir narsadan o'zining ulug' ajdodlaridan qolishmasligini naqshlar orqali xalqqa yetkazish vazifasini qo'ygan. San'at kalitini egallagan mashhur me'mor o'z oldiga qo'yilgan falsafiy fikrni naqsh tili bilan

xalqqa unsiz ovozda yetkaza bilgan. Sherdor madrasasining bosh fasadi jozibali chiqqan bo`lib, uning peshtog`i mutanosib (simetrik) qilib ramziy naqshlar bilan bezatilgan, qizg`ish zarxal yo`lbarssimon sherlar nozik ohularga quvib yetib tashlayotganini va ularning ortidan kulib to`rgan odam qiyofada quyosh esa zarxal yog`dusi bilan hoshiyalangan (10-rasm).



10-rasm

Ularning atroflaridan islmiy naqshu nigoralar ishlangan. Tasvirda epchil, kuchli, yengilmas sher ramziy ma'noda Yalangtush Baxodirga ishora qilingan, uning aksi qilib kuchsizlik ramzi tariqasida ohu tasvirlangan. Quyosh esa o`sha davr va hayot ramzi tariqasida olingan. Zangori rangli koshinlar orqali koinotni va tinchlikni noziklik o`simliksimon naqshlar orqali bog`u-bo`stonni, tabiatni aks ettirgan.

Xo`sh naqqoshlikda ramz nima? - U arabcha "ishora qilmoq" so`zidan olingan, tabiatan, voqealikni hayotdagi quvonch va tashvishlarni do`st va

dushmanlarni, yaxshilik va yomonlikni naqsh elementlari, jonli chiziqlar, ranglar orqali tasvirlashdir.

Tasviriy san'atning barcha turlari kabi badiiy bezash ishlari ham kompozitsiyaning umumiy qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bu ishlar bezakchi rassomdan yetarlicha bilim va malakalarni talab qilishi bilan birga, doimo kompozisiya masalalarini diqqat markazida tutishni taqazo qiladi.

Badiiy bezash ishlarida kompozitsiyaning asosan uchta: tekis, hajmli, kenglik va chuqurlikka ega bo'lgan turlari mavjud. Bularning barchasi u yoki bu g'oyani amalga oshirishda qandaydir bir umumiy sifat va belgilarga ega bo'ladi.

Frontal kompozisiya – bu ikkita koordinatalar bo'yicha frontal tasvirni tashkil etish demakdir. Frontal kompozitsiyaning xarakterli xususiyati unda hajmli elementlarni ishlatishning cheklanishi va shu bilan bir paytda, uning o'lchovlarini kattalashtirish imkoniyatlari ortib borishidir. Shuning uchun ayrim relefsimon tasvirlar (masalan: kandakorlik, yog'och hamda ganch o'ymakorligi va hakoza) plastika qonuniyatlari asosida ko'rilsa ham, tekis yuza kompozitsiyalar turiga kiradi. Ta'lim-tarbiya muassasalaridagi bezak ishlarining ko'p qismi, masalan, ko'rgazmali qurollar, devoriy gazetalar, tematik stendlar, taklifnoma, tabriknoma, tematik albom va hakoza frontal kompozisiya asosida bajariladi. Kompozitsiyaning qurilishi ma'lum ob'ektning vazifasi hamda mazmuniga, undan ko'zlangan maqsadga bog'liq bo'ladi. Kompozitsiyalarning asosiy tuzilmalari quyidagilardan iborat: **Gorizontal kompozisiya** – bunda kompozisiya elementlari gorizontal yuzaga joylashtiriladi. Masalan: dala, shahar panoramasi va boshqalar. **Vertikal kompozisiya** - aktiv, dinamik kompozisiya bo'lib, yuqoriga o'sish, parvoz tasavvurini hosil qiladi, uning detallari asosan tik chiziq bo'yicha joylashadi. **Diagonal kompozisiya** – uning qurilishi dinamik va shiddatli sxemalarga asoslanadi. **Uchburchak yoki piramidal kompozisiya** – bunda turg'un, osoyishta holatga tayaniladi. Surat yuzasining pastki qismi piramidaning negizi hisoblanadi. Badiiy bezash san'atidagi frontal kompozitsiyalarning muhim xususiyatlaridan biri ularning yupqa yuza tarzida ijro etilishidir. Frontal kompozisiya boshqa tur

kompozisiyalardan hajmni, masofa va kenglikni berishi bilan farqlanadi. Hajmli kompozisiya turli qurish nuqtalaridan idrok qilishga mo'ljallangan uch o'lchovli shaklda bo'ladi. Asarlarning mazmuni va vazifasiga muvofiq kompozisiyaning biror xususiyati bo'rttirilishi mumkin. Kompozisiya o'z xususiyatlari bilan pirovard natijada badiiy bezash ishlarining yuksak badiiyligini ta'minlashga asos bo'lib xizmat qiladi. Kompozisiyalarning garmonik yaxlitligida ranglar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa rang asosiy o'rin tutadigan mozaik panno, vitrajlarda kompozision garmoniyaga jiddiy qarash lozim. Shundagina asarning rang birligi estetik ta'sir etuvchi eng asosiy omillardan biri bo'ladi. Kompozisiya qonuniyatlaridan asossiz chetlashish odatda badiiy bezash ishlari mazmunini ham, estetik mohiyatini ham pasaytiradi. Agar kompozisiya elementlari tomonlarda bir-biriga nisbatan bir xil joylashsa, ular kompozision muvozanatda bo'ladi. Kompozitsiyaning asosiy masalalaridan biri kombinatsiyadir. Kombinatsiya asosida bir va bir necha elementlarning joyini o'zgartirish orqali kompozisiyaning yangidan-yangi ifodali variantlari tayyorlanadi. Dinamik va turg'un kompozisiyalar ham o'z qonuniyatlariga ega. Bular o'rtasida qarama-qarshi ma'no kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik, ya'ni asosiy va Ikkinchi darajali elementlarning mantiqiy uyg'unligiga erishish lozim. Ritm qonuniyatlarini bilish ta'sirchan kompozisiya tuzishda ritmik kurinishning xarakterini to'g'ri tanlashga katta yordam beradi.

Biz endi o'zbek milliy naqsh tili alifbosi bilan tanishtirib chiqamiz. Ular quyidagilardan iboratdir:

Geometrik naqsh elementlarining ramziy ma'nolari:

Teng tomonli uchburchak - tik turgan holati hayotni boshlanishi, teskari turgan holati esa hayotni oxirini bildiradi.

Teng yonli uchburchak - yaxlit bo'lak, ayriliq.

Kvadrat - dunyoning turt tomoni, osmon saroyi, quyosh farzandi, abadiylik, yoruglik, mustahkamlik.

To'g'ri turtburchak - ishonch.

Romb - ayol, ya'ni ona yer ramzi, serfarzandlik. Aylana-olam, baxt, quyosh, odamlarni yovuz niyatidan qaytarish ramzi. Besh qirrali yulduz-hayotning qisqaligi, besh kunlik dunyo. Yarim aylana - baxt.

Yarim oy - islom dinini ifodasi. Musulmonlik ramzi.

O`ng svastika - abadiy harakat, o`shish, ko`tarilish.

Chap svastika - teskari harakat, bo`zilishi. Quyosh - hayot ramzi.

Bulut olov – g`oliblik ramzi.

Islimiy naqsh elementlarining ramziy ma'nolari:

Bodom - baxt iqbol.

Barg – bahorgi uyg`onish. Qalampir - har xil yomonliklardan va yomon ko`zdan asrash ramzi.

Zirk guli - (Gulsafsar) - osoyishtalik va umr uzoqligi.

Anor - ezgulik, to`kchilik, to`kin-sochinlik.

Oygul - baxt iqbol ramzi.

Jingala – to`kin sochinlik, boylik ramzi.

Olma – muhabbat ramzi.

Novda - boylik va farovonlik.

Yaproq – to`qchilik, bahorgi uyg`onish, navro`z.

Isriq - yomon ko`zdan asrash ramzi.

Atirgul – go`zallik ramzi.

Qush va hayvonlar ramziy ma'nolari:

Sher - mardlik va jasorat, kuchlilik ramzi.

Tulki - makkorlik.

Chumoli - donolik, xoksorlik ramzi.

Bulbul – sadoqat.

Xumo - baxt keltiruvchi qush.

Boyqush - baxtsizlik.

Baliq - xushyorlik ramzi.

Sichqon - uy hayvonlarini ko`payishi ramzi.

Echki - jasurlik, mardlik.

Oq kabutar – tinchlik ramzi.

Ohu – go`zallik, noziklik.

Ranglarning ramziy ma`nolari:

Yashil rang - ona tabiat ramzi.

Ko`k rang - moviy osmon.

Qizil rang – g`alaba, xursandchilik.

Sariq rang – muqaddaslik.

Qora rang - motam.

Sariq gul – ayriliq.

Zangori - oliy e`tiqod.

Oq rang - tozalik, yorug`lik.

UMUMIY XULOSA

Mustaqillikka erishganimizdan so`ng, O`zbekistonda ta`lim sohasida keng imkoniyatlar ochildi, vatanimizning xalqaro sahnadagi muvaffaqiyati, obro-e`tibori va o`rni milliy o`zligimizni anglashda, chizmachilik fanlari yetakchi mavqe kasb etib, har bir fuqoroning mamlakat taqdiri uchun mas`ullik hissini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan, ta`lim sahosidagi tub islohatlarga etibor kuchaytirilmoqda. Chunki kelajak avlodni, bilimli, har tamonlama yetuk shaxs qilib tayyorlashda pedagog o`qituvchilar oldiga katta mas`uliyat yuklamoqda. Shu bilan birga fan texnika taraqqiyoti natijasida muhandislik fanlariga bo`lgan talab oshib bormoqda.

Shuning uchun bitiruv malakaviy ishimning kirish qismida “ Dekorativ rasm chizishda naqsh elementlari” inson hayotidagi ahamiyati, tarixi haqida davlatimiz tamonidan olib borilayotgan ta`lim sahosidagi qarorlar va kadrlar tayyorlash milliy dasturi, davlat ta`lim standartlarida, amaliy san`at fani oldiga qo`yilgan asosiy vazifalarni, amaliy san`atning fan va texnika taraqqiyoti davridagi ahamiyati haqida ma`lumotlar to`pladim, ushbu ma`lumotlar asosida kirish qismini yozdim.

Bo`limning Ikkinchi qismida bugungi kunda oily oquv yurtlarida, kasb hunar kollejlarida amaliy san`at fanini o`qitish. Inson uchun zarur bilimlar miqiyosi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig`indisini o`zlashtirish bilan cheklanib bo`lmaydi. Shuning uchun o`quvchilarga o`z bilimlarini mustaqil ravishda to`ldirib va boyitib borishni, o`zining diqqat-e`tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarning eng muhimlariga qaratishni o`rgatish kerak. Bu vazifa o`quvchilarning badiiy bezash ishlarini, ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog`liq holda kengaitirish va rivojlantirishni taqozo etadi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan xulosa shuki, talabalarga boshlang`ich kurslardan boshlab tasviriy san`atning, qalam tasvir, rang tasvir, amaliy san`at kabi mutaxassislik fanlarining asosi bo`lgan, qalam tasvir mashg`ulotlari ham amaliy, ham ilmiy–nazariy jihatdan yaxshi o`qitilishi shart.

O`tmish tarixdan ma`lumki, qadimda buyuk me`morlarlar amaliy san`atning, ilmiy asoslarini qo`llash natijasida, katta yutuqlarga erishganlar.

Bularni talabalarga o`qitishda didaktik prinsiplarning asosiysi hisoblangan— ilmiylik- prinsipi yetakchi o`rin egallashi lozim.

Men o`zimning bitiruv malakaviy ishimda, rasm chizishda naqsh elementlari haqidagi umumiy tushunchalarni bayon etdim, naqsh elementlari usullarini misollar keltirish bilan yoritdim. Shu bilan birga amaliy san`atga doir bir nechta misollarni ko`rsatdim. Men o`z bitiruv malakaviy ishimda oldinga qo`ygan maqsadimga erishdim.

ATAMALARNING IZOHLI LUG`ATI

Avtoportret – portret janrining ko`rinishlaridan biri bo`lib, rassomning o`zini tasvirlashiga aytiladi.

Axromatik rang – oq, kulrang, qora ranglar bir-biridan yorug`lik kuchlari bilan farqlanadi.

Asosiy rang – tabiatda mavjud bo`lgan sariq, qizil va zangori ranglar.

Amaliy grafika – grafika san`atining turlaridan biri. Turli xildagi yorliqlar, konvert yuzasiga ishlanadigan rasmlar, tabrik xati va telegrammalar, markalar shu turga mansubdir.

Animalist – (lotin «animal» – hayvon) hayvonlarni tasvirlovchi rassom yoki haykaltarosh.

Applikatsiya – bar xil rangli qog`oz yoki mato parchalaridan soya tasvir (siluet), naqsh, gul va hokazolarni qirqib qog`ozga yoki maxsus pannoga yopishtirish.

Assimetriya – nomutanosiblik, biror buyum qismlari, bo`laklarining ma`lum bir nuqta, chiziq yoki tekislikka nisbatan bir-biriga o`xshamasligi, munosib kelmasligi.

Afrodita – qadimgi yunon afsonalaridagi sevgi va go`zallik ma`budasi.

Batalist – jang manzaralarini tasvirlovchi rassom.

Venera – Yunon va Rum afsonalarida muhabbat va go`zallik ma`budasi.

Vitraj – (frans – deraza oynasi) rangli shisha, oyna bilan dekorativ harakterdagi naqsh yoki tasvir ishlash. Odatda, rom derazalariga shunday tasvirlar ishlanib, ular o`zida nur o`tkazishi hisobiga turli ko`rinishlar hosil qiladi.

Garmoniya – xarmoniya (grek) – bog`liq bo`lish, munosiblik, muvofiqlik, badiiy asar qismlarining mutanosibligi.

Grizayl – (frans. grizaille, griz – kul rang) kul rang yordamida bir rangning har xil tuslari orqali ishlangan tasvir.

Diptix – (grek, diptigos-ikki qatlangan) o`rta asrlar san`atida keng tarqalgan, ikki qismdan iborat relef va rangtasvirdan to`zilgan asar.

Drapirovka – fon uchun ishlatiladigan har xil rangli materiallar, gazlamalar.

Janr – (frans, tur. ko`rinish). Tasviriy san’atda janr deyilganda, biror bir mavzuni o`zida aks ettiradigan san’at asarlari tushuniladi. Masalan, manzarada tabiatning turli ko`rinishlari aks ettiriladi. Alohida yoki odamlar guruhini aks ettiradigan rasmlar esa portret janridagi rasmlar deyiladi. Meva, gul, uy buyumlari va shunga o`xshash narsalarning tasvirini aks ettiruvchi rasmlar natyurmort janridagi rasmlar deyiladi va h.k.

Interer – uying ichki ko`rinishini tasvirlanishi.

Iliq rang – olovni, quyoshni eslatuvchi sariq, to`q sariq, sarg`ish, zarg`aldoq va qizil rang kabilar.

Illyustratsiya – kitob, gazeta-jurnal grafikasining ko`rinishlaridan biri bo`lib, matn yoki hikoya bilan bog`liq bo`lgan, shu hikoyadagi lavhaning ko`rinishini o`zida aks ettiradigan rasmlardir.

Inkrustatsiya – (lotin) har xil materiallarni birlashtirilib, san’at asari yaratish.

Kapitel – (lotin-kalla, bosh) ustunning yuqori qismi bezagi.

Kompozitsiya – (lotin kompozitio to`zilish, qurilish) badiiy asardagi obrazlar va badiiy vositalarning muayyan g`oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi va ularning muvofiqligi.

Kompanovka – Chiziladigan buyum, manzara va boshqalarni qog`oz yuzasiga mos qilib joylashtirish.

Qolorit – yozilgan asarda mujassam ranglar majmuasi.

Kontrast – qarama-qarshilik, zidma-zidlik, ranglarning o`zaro qarama-qarshiligi. Bir rangning yonida Ikkinchi rangning yanada yorqinroq, keskinroq, ko`rinishi. Yashil rangning yonida qizil rang yanada jozibali, chiroyliroq ko`rinadi va hokazo.

Kontur – tarx, tashqi ko`rinish. Narsaning qalamtasvirini ishlashda qo`llaniladigan zirh chiziq.

Kopirovka – naqshlarning, qalamtasvirini qog`oz va gazlamaga ko`chirishda ishlatiladigan qora, qizil, sariq, zangori tusdagi rangli qog`ozlar.

Lok – Moybo`yoqlarda ishlangan tasvirlar uchun alohida lok qo`llaniladi. Shuningdek, loklar aerozol bankachalarida chiqarilib, ular ko`mir, pastel, sangina, retush kabi tasviriyy vositalarda bajarilgan grafik ishlarning yuzasiga sepib mustahkamlanadi.

Lessirovka – rangtasvir texnikasi usullaridan biri. Qurigan qalin qatlam yuzasiga yorqin yoki yarim yorqin ranglarning berilishi.

Mozaika – rang-barang shisha, toshchalar, yog`och, faner, charm qiyqimlaridan bir-biriga zich qilib yonma-yon yopishtirish yo`li bilan hosil qilingan rasm.

Molbert – qalamtasvir va rangtasvir ishlash uchun qo`llaniladigan moslama.

Mazok – surtma, mo`yqalamda keskin va o`zib-o`zib ishlash, bunda asosan mo`yqalamning karton yoki matoda qoldirgan o`ziga xos izlari.

Nabroska – xomak ish, qoralama, o`ziga xos chiziq va chizqlar yordamida tez bajariladigan tarxli tasvir.

Natyurmort – (frans. jonsiz tabiat) tasviriyy san`at janri. Gul, meva, sabzavot, qushlar, uy-ro`zg`or buyumlari, ayrim mehnat qurollari tasvirlanadi.

Plakat – (lotin, e`lon, guvohnoma). Grafika san`atining turlaridan biri bo`lgan plakatda tasvir va yozuvlar yoki faqat yozuvlar o`zining badiiyy ifodasi orqali davrning eng muhim voqcalarini tomoshabinga yetkazadi, uni kurashga da`vat etadi, ogoxlantiradi, tushuntiradi.

Plener – ochiq kenglik.

Rangtasvir – devorlarga ishlangan turli rasmlar, polotnolarga chizilgan surat, kino va teatr bezaklari. Bu san`atda rang muhim o`rinni egallaydi va uning o`ziga xos xususiyatli tomonlaridan birini tashkil qiladi. Grafika san`atida rang shunchaki yordamchi vosita vazifasini o`tasa, rangtasvirni esa rangsiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Rassom rang orqali borliqni ifodali obrazlarda tasvirlaydi, makonning cheksizligi, undagi narsalarning rang-barangligini, hamda hajmini ko`rsatadi.

Reproduksiya – tasviriyy san`atga nisbatan olinadigan, haqiqiy badiiyy asarning poligrafiya vositalari yordamida qayta hosil qilingan ko`rinishi.

Restavratsiya – (lotin. tiklash) zarar ko`rgan tasviriy badiiy asarlarning umrini uzaytirish va ilmiy usullardan foydalanib, asl holiga qaytarish.

Retush – (frans. to`g`rilash) tasvirning aniqlangan kamchiliklarini to`g`rilash.

Ritm – Yaratilgan asar komponentlarining ohangdor, tekis yoki dinamik qaytarilishi.

Syujet – (frans. buyum, narsa, harakat). Tasviriy san`atda tasvirlangan buyum yoki voqea tushuniladi. Hayotiy voqea, lavha, harakat.

Siyoh qalam – kichik mo`yqalam bilan naqsh tarxini bo`yoqda chizib chiqish.

Sovuq ranglar – muz, qor, suvni eslatuvchi havo rang, zangori, ko`kish yashil, to`q binafsha kabi ranglar.

**Tasviriy san`at** – odatda, mavjud borliqni ko`rinarli obrazlar, shakllar orqali fazoviy kenglikda, yuzada yoki tekislikda (masalan, qog`oz yuzasida, devor sathida va h.k.) aks ettira oladigan san`atdir.

Tasviriy san`at tushunchasi keng ma`noga ega bo`lib, unga grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik san`ati ham kiradi. Tasviriy san`atning hamma turlari bir-biriga juda yaqin va bir qator o`xshashliklari bor, lekin shu bilan birga, ulardan har birining o`ziga xos tasvirlash uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ularning har biri ishlatilish o`rni, aks ettiradigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab, bir qator tur va janrlarga bo`linadi.

Etyud – (fransuzcha «o`rganish») yirik asarlarni ishlash uchun bevosita naturadan, hayotdan ishlanadigan kichik lavha.

Etyudnik – etyud ishlashga moslashtirilgan ko`chma dastgoh.

**Qo`shimcha ranglar** – qizil, sariq va zangori bo`yoqlarning aralashuvidan hosil bo`ladigan omuhta ranglar.

Xolst – rangtasvir uchun maxsus tayyorlangan mato.

TAYANCH TUSHUNCHALAR.

Frontal kompozitsiya – bu ikkita koordinatalar bo'yicha frontal tasvirni tashkil etish demakdir.

Relief – bo'rtma tasvir.

Kandakorlik – mis buyumlarga o'yma naqsh ishlash.

Plastika – nafis, ko'rkam ma'nolarni anglatadi.

Panno – binoning devoriga, shipiga ishlangan naqsh va boshqa bezak lavhalar, matoga ishlangan katta sur'at.

Garmoniya – uyg'unlik.

Kombinatsiya – uyg'unlik, hamohanglik.

Stilizatsiya - umumiyashtirish, tabiatda uchrovchi o'simlik va hayvonot dunyosini eng sodda holatida tasvirlash.

Faktura - materialarning tabiiy jilosi va boshqa xususiyatlari

Kompozitsiya - lotincha so'zdan olingan bo'lib, u to'qish, bir-biriga ma'lum tartibda birlashtirishni anglatadi.

Ritm - Kompozitsiyaning eng kuchli va xarakterli asosi hisoblanadi. Ritm naqsh elementlarining ma'lum masofada bir tekisda takrorlanib kelishi.

Inter'er - Binoning ichki qism ko'rinishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T., 1992.
2. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni. -T., 1997.
3. O`zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997.
4. O`zbekiston Respublikasining Davlat ta’lim standarti, T.2003.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod- O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. G` O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 9-sessiyasida so`zlagan nutqi. - T.:Sharq, 1997.- 53b.
- 6 Shaxtaxtinskiy M. K voprosu izucheniya “Analitiki” Aristotelya. G` Ocherki istorii shqolo` i pedagogicheskoy mo`sli narodov s drevneyshix vremen do kontsa 18 v.- Moskva: MGU, 1995-S.-34-46.
- 7 Lebedev K. A. Aporii Zennona v razdumyax filosofov. G`G` Filosofiya Vostoka i Zapada.- Sb.nauch. trudov – M: MGU.- S.117.
- 8 Sayidahmedov N. Yangipedagogik texnologiyalar.- T.: MoliYa, 2003.-17b.
- 9 Sayidahmedov N. Pedagogika fani metodologiyasi yohud uning zamonaviy mazmuni haqida: Amaliyot va nazariyaG`G` Ma’rifat.-2004,- 21 fevral.
- 10 Rubinshteyn L. S. Psixologiya lichnosti.-M.: Prosveshenie,1991-237 s.
- 11 Raykov B. ye. Slovesno`e formo` i metodo` obucheniya.-M.: Znanie,1997.- 282 s.
- 12 Pavlov I. P. Psixologiya vo`sshego razuma.-M.: Prosvehenie, 4-e izd., 1987.-434 s.
- 13 Botir Boymetov Qalam tasvir “MUSIQA” nashriyot TOSHKENT-2006
- 14 B.Z. Azimova “Natyurmort to`zish va tasvirlash metodikasi”Toshkent – O`qituvchi-1984.
- 15 B.Z.Azimova, R.Rajabov,S.F.Abdirasulov,Tasviriy san`atga oid atamalarning izohli lug`ati.Toshkent -1994.
- 16 S. Abdiraulov Tasviriy san`at atamalari. Toshkent- 2003
- 17 G.V.Beda. JIVOPIS. Moskva -1989.
- 18 L.O.Barsh. Nabroski I zarisovki.-Moskva -1970.

- 19 B.S.Ko`zin. Nabroski I zarisovki.-Moskva -1970.
- 20 A.P.Yashuxin. JIVOPIS. Moskva -1990.
- 21 X.Egamov.Bo`yoqlar bilan ishlash. –Toshkent . “O`qituvchi”1981.
- 22 R.Hasanov.”Maktabda tasviriy san`at o`qitish metodikasi”Toshkent.-
“Fan”.2004.
- 23 A.Y. Terent`yev.Izobrajenie jivotnix I ptits sretstvami risunka I jivipisi.
Moskva.-1980.
- 24 N.Oydinov. Rassom o`qituvchilar tayyorlash muammolari. Toshkent.-
“O`qituvchi” –“Ziyo Noshir”, 1997.
- 25 M.Nabiyev. Rang shunoslik. Toshkent “O`qituvchi”, 1995.
- 26 N.M.Moleva.Vidayusheysiya russskiy xudojniki – pedagogi. Moskva
,1991.
- 27 N.Rastovtsev. Akademicheskiy risunok.Moskva,1985.
- 28 V.S.Ko`ziin. voprosi izobrazitel`nogo tvorchestvo.-Moskva.1971.